13	Mehnatga haq to‘lash	Mehnatga haq to‘lash tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Mehnat haqini huquqiy tartibga solish uslublari. Mehnatga haq to‘lashni qonun hujjatlari va lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solish. Mehnat haqi tarkibi. O‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish. Mehnat haqini to‘lash tartibi. Ish haqini to‘lash vaqti, joyi va muddati. Mehnat haqidan ushlab qolish. Normal ish vaqtidan chetga chiqqan holda bajarilgan ishlar uchun haq to‘lash. Ish vaqtidan tashqari ishlar, dam olish va bayram kunlaridagi ishlar uchun haq to‘lash. Tungi vaqtdagi ish uchun haq to‘lash.	2	2N	2
14	Kafolatli to‘lovlar va kompensasiya to‘lovlari.	Kafolatli to‘lovlar tushunchasi. Davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida beriladigan kafolatlar. Ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish vaqtida beriladigan kafolatlar. Jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda beriladigan kafolatlar. 18 yoshgacha bo‘lgan xodimlarga beriladigan kafolatli to‘lovlar. O‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi.Kompensasiya to‘lovlari, ularning turlari. Xizmat komandirovkasi davrida, ko‘chib yurish bilan bog‘liq ishlarda harajatlarni to‘lash. Xodimga tegishli mol – mulkdan foydalanganlik uchun xarajatlarni to‘lash.	2	2N	2
15	Mehnat intizomi, tibbiyot xodimlarining burchlari va vazifalari .	Mehnat huquqi bo‘yicha mehnat intizomi tushunchasi. Mehnat intizomini ta’minlash usullari. Xodimlar va ma’muriyatning vazifalari. Ichki mehnat tartibi qoidalarini huquqiy jihatdan tartibga solish. Ayrim toifadagi xodimlarning intizom to‘g‘risidagi	4	4N	2

		Ustav va Nizomlari. Xodim va ish beruvchining asosiy burchlari. Mehnat uchun rag‘batlantirish. Intizomiy nojo‘ya harakat va uni tashkiletuvchi elementlar. Mehnat intizomini buzganlik uchun boshqa huquqiy jazo choralari.			
16	Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi.	Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi tushunchasi va shartlari. Mehnat qonunchiligidagi moddiy javobgarlikning fuqarolik qonunchiligidagi mulkiy javobgarlikdan farqi. Mehnat shartnomasining bir tarafi boshqa tarafga etkazgan zararini qoplash majburiyati tushunchasi. Ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun xodimning moddiy javobgarligi tushunchasi. Moddiy javobgarlik turlari. Xodimning cheklangan moddiy javobgarligi chegarasi. Xodimning moddiy javobgarligini istisno etuvchi holatlar.Zararni undirish tartibi. Zararni sud tomonidan undirilishi. Korxonaga uning rahbari tomonidan etkazilgan zararning to‘lanishi. Zararni undirish haqidagi qaror ustidan shikoyat qilish huquqi.	2	2N	2
17	Mehnatni muhofaza qilish	Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uningahamiyati. Xodimlarning mehnatini har tomonlama muhofaza qilish va sog‘lig‘ini saqlash davlatning konstitusiyaviy burchidir. Mehnatni muhofaza qilish institutining mazmuni. Mehnatni muhofaza qilishning tashkiliy–huquqiy shakllari: mehnatni muhofaza qilishni rejalashtirish va Moliyalashtirish tadbirlari. Mehnatni muhofaza qilish normalari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari.Mehat muhofazasiga doir qonunlarni buzganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi.	4	4N	2
18	Ayrim toifa xodimlarga beriladigan qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar.	Ayollar mehnatini muhofaza qilish masalalari. Ayollar mehnatini qo‘llash ta’qiqlanadigan ishlar. Ayollar ko‘tarishlari va tashishlari mumkin bo‘lgan yuk normalari. Yosh bolasi bor ayollar mehnatini maxsus tashkil etish. Homilador va bolasi bor ayollar mehnatini maxsus tashkil etish. Homilador va yosh bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishdagi kafolatlar. Yoshlar mehnatini muhofaza qilish. Yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish ta’qiqlanadigan ishlar. Yoshlar ko‘tarishi mumkin bo‘lgan yuk normalari. Yoshlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish. Yoshlarga mehnat huquqi sohasidagi imtiyozlar. Ayrim oliy o‘quv yurtlarida maxsus sirtqi bo‘limlarda ishni ta’lim bilan qo‘shib olib	4	4N	2

		borayotgan xodimlar uchun imtiyozlar.			
19	Mehnat nizolari va ularni hal qilish tartibi.	Mehnat nizolari tushunchasi vauning klassifikasiyasi. Mehnat nizolarining kelib chiqish sabablari. Mehnat nizolarini ko‘ruvchi organlar. Mehnat nizolarining taalluqliligi. Xodimlarning huquq va erkinliklarini qonuniy mustahkamlashda sud va huquqni muhofaza qilish organlarining roli. Mehnat nizolari komissiyasini tuzish va bu komissiyaningvakolatlari. Yakka mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasida ko‘rib hal qilish. Mehnat nizolarini suda ko‘rishning xususiyatlari. Mehnat nizosini tumanlararo (shahar) fuqarolik sudiga o‘tkazish va mehnat nizolari komissiyasi qarori ustidan shikoyat qilish.	4	4N	2
		Jami:	**48**	**N-38** **A-6** **Se-4**	**24**

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etilgan adabiyotlar va saytlar ro‘yxati

1.Sh.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

2.Sh.Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

3.Inoyatov A. A. O‘zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. “Iqtisod va huquq dunyosi” nashriyot. T.,2012.

4.Tursunov Yu. Mehnat huquqi . Darslik . T.,“MOLIYa”, 2015.

5.O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga sharxlar. T.,TDYuI, 2018.

6.Usmanova M. A. Mehnat shartomasi. O‘quv qo‘llanma. T.,TDYuI. 2019. Tursunov Yu. Xalqaro mehnathuquqi. Darslik. T.,TDYuI, 2010. 253 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.,O‘zbekiston. 2008. 40-bet

9. O‘zbekiston Respublikasining Mehnatkodeksi. T.,“NORMA”, 2010 271-bet

10. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonuni.

11.O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 2003 yil 29 avgust

Internet saytlar

1. Sayt “Profsoyuznayaucheba”: neyantsev @ z66. ru. http: G‘G‘ bcaG‘uzG‘prot.
2. law @ ext. dvg. ru. “Konferentsiyapotrudovomupravu”.
3. www. Mintrud. ru. “Obzorzarabotnoyplati”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910205- “Funktsional diagnostika ishi” mutaxassisligi

ANALITIK KIMYO FANIDAN

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya	Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi
O‘quv rejadagi tartib raqami:	3.01
Ajratilgan auditoriya soat:	72

Toshkent 2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchi:

A.M. Bariyeva — Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o‘qituvchi

N. A. Begaliyeva — “Analitik kimyo” fani o‘qituvchisi

Taqrizchi:

A.M. Djalilov — Toshkent Farmasevtika instituti, analitik kimyo kafedrasi mudiri, dotsent

1.O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar.

O‘quv dasturining nomi	**Analitik kimyo**
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	12
Dasturning maqsadi.	O‘quvchilar moddalarni kimyoviy tarkibini, xossalarini, ularni sifat va miqdor jihatdan analiz qilishn bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Fanga oid nazariy va amaliy bilimlarni o‘rgatish; moddalar tarkibini, sifatini, miqdorini aniqlash.
Bilim	- Sifat analiz usullari, sinflanishi; - Eritmalar konsentratsiyalarini ifodalashga oid masalalarni ishlash; - Oksidlanish-qaytarilish reaksiya-tenglamalarini tuzishni bilish; - Xususiy moddalar tarkibidagi qo‘shimchalarni aniqlash usullari.
Ko‘nikma	-Kimyoviy analiz tekshirish usullari; - foiz, molyar, normal, molyal konsentratsiyali eritmalar tayyorlashni; - formulalar bo‘yicha hisoblashni; - eritmalar konsentratsiyasini bir birlikdan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha masalalar yyechishni. - analiz uchun zarur jihozlardan to‘g‘ri foydalanishni; amaliy mashg‘ulot jurnalini to‘g‘ri yuritishni; guruh va xususiy reaktivlarni to‘g‘ri tanlashni va ulardan foydalanishni; reaksiyalarning tomchi, yarim mikroanaliz va mikrokristalloskopik usullarini to‘g‘ri bajara olishni; analizdagi sifat reaksiyalarining tenglamalarini molekular, ionli va qisqartirilgan ionli tenglamalarini tuza olishni; I-VI- analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyatini o‘rganishni. -anionlar klassifikatsiyasi va ularning guruh reaktivlarini o‘rganishni; - sifat reaksiyalari o‘tkazish va ularni tahlil qilishni; - analiz jarayonini orasta va aniq bajarishni; - analizdagi sifat reaksiyalarining tenglamalarini molekular, ionli va qisqartirilgan ionli tenglamalarini tuza olishni; natijalar asosida noma’lum moddani aniqlashni; -I-III-analitik guruh anionlarining tibbiyotdagi ahamiyatini o‘rganishni. - laboratoriya jihozlari va asboblaridan foydalanishni; - analitik va elektron tarozilarni ishlatishni; - qizdirish va kuydirish asboblaridan foydalanishni; - doimiy og‘irlikka keltirishni; - analiz natijalarini to‘g‘ri hisoblashni. - o‘lchov asboblari, makro va mikro byuretkalarda ishlashni; - eritma tayyorlash va tegishli hisoblashlarni bajara olishni; - titrlash tartibini o‘rganishni; tuzatish koeffitsienti normalligini va titrini aniqlashni; - suvli va suvsiz eritmalarning farqini o‘rganishni; - tajriba natijalarini kundalikka to‘g‘ri yozishni; reaksiyalarni to‘g‘ri yoza olishni. -nazorat eritmadagi streptotsid miqdorini aniqlashni; • permanganotometrik aniqlash usullarini qo‘llashni; -titrlash jarayonini amalga oshirishni; - Mor tuzi tarkibidagi temir (II) miqdorini aniqlashni; - eritmadagi vodorod peroksidning miqdorini aniqlashni;

	- yodometrik aniqlash usullarini qo‘llashni; -mis (II) sulfat tarkibidagi mis miqdorini aniqlashni; - titrlash natijalari asosida hisoblashni; - kaliy bromatning ishchi eritmasini tayyorlashni; -usul mohiyatini, titrlangan eritmalarni tayyorlashni; - modda tarkibini miqdor jihatdan aniqlashni; - titrlash texnikasini, ekvivalent nuqtani aniqlashni; - indikator tanlashni; - natriy nitritning ishchi eritmasini tayyorlashni; -eritmaning titrini aniqlashni; -bromatometrik va nitritometrik analiz natijalarini taqqoslashni. - Cho‘ktirish usullarini ajrata olishni; - argentometriya usuli va bu usulni aniqlashni; - Mor, Folgard, Fayans usullari bo‘yicha aniqlashni; - indikatorlar tanlashni; - hisoblash natijalarini tahlil qilishni; - eritmalar tayyorlashni, kompleksonlarni ajrata bilishni; -kompleksonometrik titrlash sharti va texnikasini, kompleksonometrik indikatorlarni ajrata olishni; - bufer eritmasini tayyorlashni; - nazorat eritmani titrlash va natijalarini hisoblashni. - fotoelektrokalorimetrda ishlash, asbobni ishga tayyorlashni; - FEK yordamida eritmadagi modda konsentratsiyasini o‘lChash ni; -temirning miqdorini fotometrik aniqlashni; - refraktometr bilan ishlash qoidalarini qo‘llashni; - eritma muxitini rN metr bilan aniqlashni; - rN metrni bufer eritmalar bo‘yicha sozlashni; - eritma rN ni o‘lchash ni; - tekshirish natijalari asosida hisoblashni.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Analitik kimyo fanidan tuzilgan dastur tibbiyot kollejlarining farmatsiya va tibbiy profilaktika ishi yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, analitik kimyo fanining nazariy asoslari, sifat analizi va miqdoriy analizni o‘z ichiga oladi. Noorganik kimyo, organik kimyo, mikrobiologik tekshirish usullari, dezinfeksiya ishi fanlari bilan o‘zaro bog‘liq
O‘qitishni tashkiliy shakli	N-Nazariy ta’lim; A-Amaliy ta’lim; MX-Maxsus xonalarda mashg‘ulot L-laboratoriya ishi
Dasturga qo‘yiladigan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida (o‘zbek, rus)
Baholash tartibi	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini	Yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2.O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishning tashkiliy	Mustaqil ishlar
1	Kirish Analitik kimyo fanining maqsadi va vazifalari, dorishunoslikdagi ahamiyati. Sifat analizi usullari	«Analitik kimyo» fani to‘g‘risida qisqacha tarixiy ma’lumot. Fanning vazifalari. «Analitik kimyo» fanining rivojlanishida o‘zbek va dunyo olimlarining fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari va izlanishlari. Fanning asosiy bo‘limlari to‘g‘risida umumiy ma’lumot. Sifat analizi usullariga qisqahha tavsifnoma berish. Kation va anionlar klassifikatsiyasi. Fizik–kimyoviy, fizikaviy, quruq va ho‘l usullar bilan tekshirish. Analitik reaksiyalar, ularga qo‘yilgan talablar. Bufer eritmalar, ularning xossalari, bufer sig‘imi, bufer sistemalarda rN ni hisoblash. Analizda ishlatiladigan sifat reaksiyalari. Analiz tartibi va uning bajarilishi. Xususiy va guruh reaktivlari. Analitik laboratoriyalarda ishlash qoidalari, texnika xavfsizligi.	2	N-2	2
2	Turli konsentratsiyali eritmalar tayyorlash. Eritmalar tayyorlashdagi hisoblar.	Eritmalar haqida umumiy tushuncha. Eritmalar konsentratsiyasini ifodalash usullari. Eritmalarning turlari. Bir konsentratsiya ifodasidan boshqa konsentratsiya ifodasiga o‘tish va ular asosida hisoblashlar.Eritmalarning turlari. Massa qism, ya’ni foiz konsentratsiyali eritma, molyar va normal konsentratsiyali eritmalar. Molyar konsentratsiyali eritma. Formulalar bo‘yicha hisoblash. Eritmaning titrini aniqlash. Eritmalar konsentratsiyasini bir birlikdan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha masalalar yechish. Kislota eritmalarini tayyorlashdagi hisoblashlar. Eritmalar konsentratsiyalari bo‘yicha masalalar yechish, xossalarini laboratoriya tajribalarida o‘rganish.	4	N-2 L-2	2
3	Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari	Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarining mazmuni, turlari, molekulalararo, ichki molekular va disproporsiyalanish, sinproprorsiyalanish reaksiyalari. Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini elektron–balans usulida tenglashtirish. Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini yarim reaksiyalar usulida tenglashtirish. Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalariga eritma muhitining ta’siri. Oksidlovchi va qaytaruvchining ekvivalentini aniqlash. Yakunlanmagan tenglamalarni	2	N-2	

		tenglashtirish.			
4	I, II, III, IV, V, VI analitik guruh kationlari	Birinchi analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalar. Kationlarning klassifikatsiyasi. Kaliy, natriy va ammoniy kationlariga sifat reaksiyalar. Kaliy va natriy kationlariga alangani bo‘yash reaksiyalari. Aralashmaning analizi. **Birinchi** analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati. **Ikkinchi** analitik guruh kationlariga cifat reaksiyalar. Guruh reaktivi, xlorid kislota, sulfat kislota, kaliy yodid, kaliy xromat yoki natriy xromat bilan reaksiyalari. Kumush kationiga xlorid kiclota, kaliy yodid, kaliy xromat birikmalarining ta’siri. Aralashmaning analizi. Ikkinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati**. Uchinchi** analitik guruh kationlariga cifat reaksiyalar. Bariy kationiga sulfat kiclota, ammoniy karbonat, kaliy xromat, kaliy dixromat va ammoniy okcalat birikmalarining ta’siri. Alangani bo‘yash reaksiyalari. Kalsiy kationiga suyultirilgan sulfat kislota, ammoniy karbonat, ammoniy okcalat, kaliy geksatsianoferrat (III) birikmalarining ta’siri. Mikrokristalloskopik va alangani bo‘yash reaksiyalari. Aralashmaning analizi. Uchinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati. **To‘rtinchi** analitik guruh kationlariga cifat reaksiyalar. Xrom (III)–kationiga ishqor, vodorod perokcid, ammoniy culfid birikmalarining ta’siri. Rux kationiga ishqor, kaliy geksatsianoferrat (III), kaliy geksatsianoferrat (II), ammoniy sulfid bilan reaksiyalari. Mikrokristalloskopik va quruq usul reaksiyalari. Aluminiy kationiga ishqor, ammoniy xlorid, ammoniy sulfid, alizarin 1,2–dioksiantraxinon bilan reaksiyalari. Aralashmaning analizi. To‘rtinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati. **Beshinchi** analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalar. Temir (II) kationiga xos reaksiyalar: ishqor, kaliy geksatsianoferrat (III), ammiakli suv, ammoniy sulfid, kaliy permanganat reaktivlari bilan reaksiyalari. Temir (III) kationiga xos reaksiyalar: ishqor, kaliy rodanid, kaliy geksatsianoferrat (II), ammoniy sulfid , kaliy yodid va natriy asetat reaktivlari bilan reaksiyalar. Marganes (II) kationi reaksiyalari: ishqor, vodorod peroksid, qo‘rg‘oshin (IV) oksid, ammoniy sulfid reaktivlari bilan reaksiyalar. Magniy kationi reaksiyalari; ishqorlar, natriy gidrofosfat, 8–oksixinolin reaktivlari bilan reaksiyalar. Vismut (III) kationi reaksiyalari: ishqorlar, kaliy yodid, natriy yoki	8	N-6 L-2	4

		kaliy stannatlari, natriy sulfid reaktivlari bilan reaksiyalar. V–guruh kationlari aralashmalarining analizi. Beshinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati. **Oltinchi** analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalar. Simob (II) kationi reaksiyalari: vodorod sulfid, ishqorlar, kaliy yodid, ammiak eritmaci bilan reaksiyalar. Mis (II) kationi reaksiyalari: ishqorlar, ammiakli suv, kaliy geksatsianoferrat (II), kaliy yodid bilan reaksiyalar. VI guruh kationlari aralashmalarining analizi. Oltinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati			
5	I, II, III analitik guruh anionlari	**Birinchi** analitik guruh anionlari sifat reaksiyalari. Sulfat anionining bariy xlorid bilan reaksiyasi. Tiosulfat anionining xlorid kislota, kumush nitrat va yod bilan reaksiyalari. Borat anionining etil spirti, konsentrlangan sulfat kislota, kurkumin qog‘ozi, bariy xlorid bilan reaksiyalari. Fosfat anionining kumush nitrat, magnezial aralashma, ammoniy molibdat bilan reaksiyalari. Sulfit anionining xlorid kislota, bariy xlorid, yod eritmasi bilan reaksiyalari. Karbonat (gidrokarbonat) anionining xlorid kislota, magniy sulfat, fenolftalein bilan reaksiyalari. Birinchi analitik guruh anionlarining tibbiyotdagi ahamiyati. **Ikkinchi** analitik guruh anionlariga sifat reaksiyalar. Xlorid anionining kumush nitrat bilan reaksiyasi. Bromid anionining kumush nitrat, xlorli suv bilan reaksiyalari. Yodid anionining kumush nitrat, xlorli suv, temir(III) xlorid bilan reaksiyalari. Sulfid anionining kumush nitrat, xlorli kislota bilan reaksiyalari. Rodanid anionining kumush nitrat, temir(III) xlorid bilan reaksiyalari. Ikkinchi analitik guruh anionlarining tibbiyotdagi ahamiyati. **Uchinchi** analitik guruh anionlariga sifat reaksiyalar. Nitrit anionining difenilamin, kaliy permanganat, temir(II) sulfat bilan reaksiyalari. Nitrat anionining difenilamin, antipirin, suyultirilgan sulfat kislota, temir(II) sulfat, Griss–Lung reaktivi, kaliy permanganat, kaliy yodidlar bilan reaksiyalari. Asetat anionining etil spirti, sulfat kislota, temir(III) xlorid bilan reaksiyalari. Uchinchi analitik guruh anionlarining tibbiyotdagi ahamiyati. I,II,III analitik guruh anionlari aralashmasining analizi.O‘quvchilarning har biriga bitta kation va bitta aniondan iborat noma’lum tuz eritmasi analiz uchun beriladi. Kationlar guruhi reaktivlari bilan ishlash. Kationlarning xususiy	8	N-6 L-2	4

		reaktivlari bilan ishlash. Anionlar guruhi reaktivlari bilan ishlash. Anionlarning xususiy reaktivlari bilan ishlash. Natijalar asosida noma'lum moddani aniqlash.			
6	Xususiy moddani tekshirish	Xususiy moddani tekshirish usullari. Amaliy mashg'ulot mazmuni: Etalon eritmalarni tayyorlash, kalsiy tuzlari qo'shimchasini qo'rg'oshin (II) asetat–ioni etalon eritmasini tayyorlash, O'quvchilarning har biriga bitta kation va bitta aniondan iborat noma'lum tuz eritmasi analiz uchun berish. Aralashtirgichdan foydalanish. Xususiy moddani tekshirish.	6	N-4 L-2	4
7	Miqdor analizi	Miqdor analizining vazifasi va uning usullari. Miqdor analizda ishlatiladigan o'lchov idishlari. Gravimetrik, fotometriya usullari, rNni aniqlash va boshqa fizik–kimyoviy analiz vositalari haqida umumiy ma'lumot. Miqdor analiz laboratoriyasida ishlash qoidalari. Miqdor analizida foydalaniladigan asosiy hisoblash formulalari.	2	N-2	
8	Gravimetrik (tortma) analiz usullari.	Gravimetrik analiz usuli mohiyati. Gravimetrik analiz usulida ishlatiladigan asboblar va reaktivlar. Gravimetrik analiz usulining olib borilish jarayonlari. Gravimetrik analiz usulining olib borilishi uchun qo'yiladigan talablar. Cho'ktirish, cho'kmani ajratib olish, qizdirish, quritish, tarozida tortish jarayonlari. Hisoblash formulalari asosida hisoblash.Temir(III) xlorid eritmasi tarkibidagi temirning miqdorini aniqlash. Analitik tarozilarda ishlash texnikasi. Cho'kmaga tushirish usulining mohiyati va tajribani bajarish tartibi. Natijalar asosida hisoblash.Bariy xlorid kristallari tarkibidagi kristallizatsion suvni aniqlash. Tajribani olib borish tartibi, mohiyati. Tajriba natijalari asosida hisoblash.	6	N-4 L-2	4
9	Titrimetrik (hajmiy) analiz usuli . Kislota–asosli (neytrallanish) titrlash usuli	Kislota–asosli (neytrallanish) titrlash usullarning asosiy nazariy mohiyati. Indikatorlar, ularni tanlash. Usul titrantlari, titrlash tartibi va texnikasi. Fiksanallardan eritma tayyorlash va ulardan foydalanish. Eritmalar tayyorlash bo'yicha hamda titrlash natijalari asosida masalalar yyechish.Kislota–asosli (neytrallanish) titrlash usullarning asosiy mohiyati. Indikatorlar, ularni tanlash. Usul titrantlari, titrlash tartibi va texnikasi. Alkalimetriya, titrlangan eritmalar tayyorlash, ularning tuzatish koeffitsientini, normalligini va	8	N-6 L-2	4

		titrini aniqlash, nazorat eritmani tayyorlash. Atsidometriya, analiz eritmalarini tayyorlash, ishchi eritmaning koeffitsientini, normalligini va titrini aniqlash. Titrlash natijalari asosida hisoblash. Suvsiz muhitda kislota–asosli titrlash, suvsiz titrlashda ishlatiladigan eritmalar, erituvchi tanlash. Amfoter erituvchilarda sodir bo‘ladigan kislota–asosli reaksiyalar.			
10	Oksidlanish – qaytarilish (oksidimetriya) usullari	Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarining mohiyati. Oksidometriya usullari. Oksidlovchi va qaytaruvchilarning ekvivalent massasini aniqlash. Oksidometriya usullarining ishlatilish sohalari. Permanganatometriya, yodometriya, bromatometriya, nitritometriya usullari. Kaliy permanganatning ishchi eritmasini tayyorlash. Oksalat kislotasi eritmasini tayyorlash. Kaliy permanganat eritmasi titrini aniqlash. Mor tuzi tarkibidagi temir (II) miqdorini aniqlash. Eritmadagi vodorod peroksidning miqdorini aniqlash. Oksidlovchilar va qaytaruvchilarni aniqlash. Natriy tiosulfat eritmasini tayyorlash. Kaliy dixromat eritmasini tayyorlash. Indikatorni tayyorlash. Kaliy dixromat bo‘yicha natriy tiosulfatning konsentratsiyasini aniqlash. Mis kuporosi tarkibidagi misni aniqlash. Eritmadagi erkin yodni aniqlash. Bromatometriya usuli asoslari. Kaliy bromatning ishchi eritmasini tayyorlash. Bromat–bromid usuli. Titrlash usullari. Streptotsid miqdorini aniqlash tartibi va hisoblashlar. Usulning asosiy reaksiyalari. Natriy nitritning ishchi eritmasini tayyorlash. Eritmaning titrini aniqlash. Oq streptotsid miqdorini aniqlash. Bromatometrik va nitritometrik analiz natijalarini taqqoslash.	10	N-6 L-4	4
11	Cho‘ktirish va kompleksonometriya (kompleks hosil qilish) usuli	Cho‘ktirish usullari mohiyati. Mor usuli, usul mohiyati, titranti, indikatori, ekvivalent nuqtani aniqlash. Bu usul bo‘yicha modda miqdorini aniqlash.Folgard usuli, usul mohiyati, usul asosida modda miqdorini aniqlash. Bu usul bo‘yicha xloridlarni aniqlash.Fayans usuli, usul mohiyati, usul asosida kaliy yodid miqdorini va preparat tarkibidagi natriy xloridning foiz miqdorini aniqlash. Kompleksonometriya usuli xakida tushuncha, uni indikatorlari, ishchi eritmalarini tayyorlash qoidalari. Kalsiyni aniklash usuli. Mor usuli, usulning mohiyati, turlari va qo‘llanilishi. Mor usulining titranti, indikatori. Ekvivalent nuqtani aniqlash. Mor usuli bo‘yicha modda miqdorini	8	N-6 L-2	4

		aniqlash. Nazorat eritmasidagi natriy xlorid miqdorini aniqlash.Folgard usuli, usulning mohiyati, usul titrantlarini tayyorlash. Titrlash usuli, indikator tanlash. Kaliy radonid, kumush nitrat ishchi eritmalari va indikatorning eritmasini tayyorlash. Kaliy radonid eritmasining aniq titrini, tuzatish koeffitsientini va normalligini aniqlash. Folgard usuli bo‘yicha modda miqdorini aniqlash. Folgard usuli bo‘yicha xloridlarni aniqlash. Natijalarni taqqoslash.Fayans usuli, usulning mohiyati. Adsorbsion indikatorlarning ishlatilishi. Ekvivalent nuqtani aniqlash. Eritmalar tayyorlash. Fayans usuli bo‘yicha modda miqdorini aniqlash. Eritmadagi kaliy yodid miqdorini va preparat tarkibidagi natriy xloridning foiz miqdorini aniqlash. Natijalarni taqqoslash. Kompleksonometriya, uning mohiyati, indikatori, ishchi eritmalarini tayyorlash. Usul bo‘yicha modda miqdorini aniqlash. Trilon B standart eritmasi yordamida II va III-valentli metall ionlari titri va normalligini aniqlash. Trilon B eritmasini tayyorlash. Kompleksonometrik titrlash shartlari. Kompleksonometrik indikatorlar va ularning turlari. Titrlash usullari. Magniy sulfat preparati eritmasini tayyorlash, titrlash.Nazorat eritmadagi kalsiy xlorid miqdorini aniqlash. Bufer eritma tayyorlash. Indikator eritmasini, trilon B (komplekson III) eritmasini tayyorlash. Nazorat eritmadagi kalsiy xlorid miqdorini aniqlash. Titrlash natijalari asosida hisoblashlar. Kompleksonometrik titrlash usulining ishlatilishi.			
12	Fizik–kimyoviy (instrumental) tekshirish usullari.	Fizik–kimyoviy tekshirish usullari. Xromatografiya, adsorbsion taqsimlanish usullari. Xromatografik ajratish usullari. Sorbent yupqa qatlam. Gazli xromatografiya. Fotometrik tekshirish usullari. Fotoelektrokolorimetriya, nefelometriya. Eritmalarning yorug‘likni yutish qonunlarini aniqlashga doir misollar. Flyuorimetriya usulining mohiyati, spektroflyuorometrning ishlash prinsipi. Potensiometriya usuli. rN–metr yordamida eritmaning muhitini aniqlash. Bufer eritma bilan asbobning sozligini (to‘g‘riligini) tekshirish. Refraktometrik tekshirish usuli. refraksiya, sindirish koeffitsienti, uning har xil omillarga bog‘liqligi.Fotoelektrokolorimetrda eritmadagi modda konsentratsiyasini	8	N-6 L-2	4

		aniqlash.Fotoelektrokolorimetrning umumiy tuzilishi va ishlash prinsipi, o‘lchash dagi asosiy qonuniyatlar. Asbobni o‘lchash ga tayyorlash va o‘lchash . Fotoelektrokolorimetr yordamida eritmadagi temir (III), mis (II) ionlari va ammiakning miqdorini aniqlash. Analiz natijalari asosida hisoblashlar. Refraktometrda eritmadagi modda konsentratsiyasini aniqlash. Refraktometrik usulning asosiy fizik–kimyoviy asoslari. Refraksiya. Yorug‘likning sindirish koeffitsientini konsentratsiyaga bog‘liqligi. Refraktometr turlari, ularni ishlashga tayyorlash. IRF–54 refraktometrda kalsiy xlorid, magniy sulfat, glyukoza eritmalarini tekshirish. Analiz natijalari asosida hisoblashlar. rN–metr yordamida eritma rN–ini aniqlash. Eritma muhitining qiymatlari. rN–metrning ishlash prinsipi, tuzilishi va ularni analizga tayyorlash. Bufer eritma yordamida rN–metrni to‘g‘rilash. Tekshirilayotgan nazorat eritma rN ini aniqlash.			
		Jami	**72**	**NL**	**36**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmaalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv , elementini o‘zlashtirish natijalariga aniqlashga imkon beradi.Nazorat savollari va topshirpiqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lish lozim .

Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari:

1. M.S.Mirkomilova.«Analitik kimyo». Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2005 yil..

2. M.G‘ulomova. «Analitik kimyo». Toshkent, «Talqin» nashriyoti, 2005 yil.

3.U.H.Haydarov. «Analitik kimyo». Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2007 yil.

7. G. P. Хомченko. «Kimyo». Oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun. Toshkent, «O‘qituvchi» matbaa–ijodiy uyi, 2007 yil.

Internet saytlari

1. http://www.ziyonet.uz/
2. http://www.lex.uz/
3. http://www.google.com/
4. http://www.dtm.uz/

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910205- “Funktsional diagnostika ishi” mutaxassisligi

Klinik laboratoriya tekshirish usullari

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya	Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi
O‘quv rejadagi tartib raqami:	3.02
Ajratilgan auditoriya soat:	216

Toshkent 2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchi: Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o‘qituvchisi

A.M. Bariyeva

Taqrizchilar:

Sh.Q.Sattorov TTA ko‘p tarmoqli klinikasi “Bolalar qabul bo‘limi” mudiri

1. O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Klinik laboratoriya tekshirish usullari
Ajratilgan soat	216
Mavzular soni	14
Dasturning maqsadi	O‘quvchilarning fanga oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali shifokor-laborantga yordam berishida qator tahlillarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlar berish va nazariy bilimlarini takomillashtirish. Bemorga to‘g‘ri tashhis qo‘yishda biomateriallarning tarkibi, ularning me’yorini va kasalliklarda o‘zgarishini bilish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda kasbiy mahoratni shakllantira olishga zamin yaratish. Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali laborantlarning klinik tekshiruvlarga oid bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlash. O‘quvchilarni ng o‘z mutaxassislik bo‘yicha integratsiyalashgan (fanlar aro bog‘liq) bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Inson xayoti faoliyatining turli yoshlar davrlarida asosiy qonuniyatlari, odam organizmidagi fiziologik va patologik jarayonlar to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladi. Infeksion havfsizlikni ta’minlash (sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tartib, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish) haqida tushunchaga ega bo‘ladilar; Feldsher-laborantlik ishi faoliyati doirasida profilaktik va davolash-diagnostik muolajalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshira oladi. Kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bilimiga ega bo‘ladi. Yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta’minlaydi va o‘rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita oladi Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda biomateriallarni klinik tashxisini amalga oshira oladilar.
Bilimlar	– siydikni tekshirish uchun qabul qilish va fizik xossalarini tekshirish; – siydikning kimyoviy xossalarini tekshirish; – buyrakning funksional holatini tekshirish; – siydik tarkibidagi shakliy elementlarni tekshirish; – siydikni mikroskopik tekshirish; – siydikning fizik-kimyoviy xususiyatlarini zamonaviy ekspress testlar yordamida tekshirish; – me’da suyuqligini olish va tekshirish; – najasni klinik tekshirish; – barmoqdan qon olishni
Ko‘nikmalar	– gemoglobinni tekshirish usullarini qo‘llash; – eritrotsit va leykotsitga qon olish va sanash texnikasini amalga oshirish; – rangli ko‘rsatgich koeffitsientini (RKK) aniqlash; – eritrotsitlarning cho‘kish tezligini (EChT) aniqlash; – qondan surtma tayyorlash va bo‘yash; – leykotsitar formulani sanash;

	– trombotsit, retikulotsitga qon olish va sanash; – gemotokrit hajmini hisoblash; – qonni ivish vaqtini aniqlash; – qonni oqish davomiyligini aniqlash; – qon guruhini va rezus-faktorni aniqlash; – bezgak va qizil yugurukga qon olish va tekshirish; – OITS ga qon olish va tekshirish; – TORCh infeksiyaga qon olish va tekshirish. – orqa miya suyuqligining fizik–kimyoviy tekshirish; – Goryaev to‘rida suyuqlik tarkibidagi sitozni sanash; – seroz bo‘shliqlaridan olingan suyuqlikning fizik-kimyoviy xossalarini tekshirish; – seroz bo‘shliqlaridan olingan suyuqlikni mikroskopik tekshirish uchun surtma tayyorlash va bo‘yash; – balg‘amni yig‘ish, fizikaviy xususiyatlarini tekshirish; – balg‘amni mikroskopik tekshirish; – teri kasalliklarida zararlangan joydan material olish, preparat tayyorlash va bo‘yash; – preparatni mikroskopik tekshirish va zararsizlantirish; – jinsiy a’zo ajratmalaridan preparat tayyorlash; – qinning tozalik darajasini aniqlash; – urug‘ suyuqligini tekshirish
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fanning nomi	“Klinik laboratoriya tekshirish usullari” fani dasturni amalga oshirishda o‘quv rejasida ko‘rsatilgan “Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari”,“Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari”, “Laboratoriya ishi texnikasi”, “Gistologiya va gistologik tekshirish usullari”, “Analitik kimyo”, “Yuqumli kasalliklar” kabi barcha umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘zlashtirishda zamin bo‘lib xizmat qiladi. Dasturni amalga oshirishda fan o‘quv rejasida ko‘rsatilgan “Anatomiya, fiziologiya va patologiya”, “Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari”, “Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari”, “Laboratoriya ishi texnikasi” fanlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi ta’minlangan.
O‘qitishning tashkiliy shakli	N –nazariy ta’lim; A –amaliy ta’lim; NA –birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX –maxsus xonalarda mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma,og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	“Klinik laboratoriya tekshirish usullari” fanining rivojlanish tarixi. Dezinfeksiyalovchi eritmalar tayyorlash.	Bu fanning “Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari”, “Laboratoriya ishi texnikasi”, “Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari”va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Klinik laboratoriya tekshirish usullari fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar. Klinik laboratoriyaning diagnostikadagi ahamiyati. Klinik laboratoriyada texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda ish joyini jihozlash va ishlash. Dezinfeksiyalovchi eritmalar tayyorlash. Ish tugagach ish joyini, ishlatilgan biomateriallarni zararsizlantirish.	8	N-4 A-4	4
2	Laboratoriya - tibbiyotining zamonaviy texnologiyalari	Biologik suyuqlik namunalari uchun ba'zi qoidalar Laboratoriya tekshiruvlari profillari Laboratoriya tibbiyotining zamonaviy texnologiyalari Immuno-ferment analiz (ELISA) . PCR-tashxis Oqimli sitometriya usuli	8	N-4 A-4	4
3	Siydik hosil bo‘lishi va uni klinik tekshirish.	Me’yordagi siydik tarkibi va uni kasalliklarda o‘zgarishi. Buyrakning o‘tkir kasalliklarini klinik tekshirishning ahamiyati. Siydik Cho‘kmalari. Buyrakni funksional holatini tekshirishning ahamiyati.Bemorlardan yig‘ilgan siydikni qabul qilib olish, belgi qo‘yish, jurnalga qayd qilish,tahlil varaqasiga yozish. Siydikning fizik va kimyoviy xossalarini tekshirish. Buyrakning ish faoliyatini tekshirish. Siydik Cho‘kmalarini mikroskop ostida tekshirish.	24	N-8 A-16	12
4	Me’da-ichak kasalliklari va uni klinik tekshirish.	Me’da-ichak suyuqligi tarkibini o‘zgarishi va uni klinik tekshirishning diagnostik ahamiyati. Me’yoriy najasning tarkibi, umumiy xossalari. Najasdagi yashirin qonni tekshirishda bemorni tayyorlashning ahamiyati. Najas tarkibini mikroskopik tekshirishning diagnostik ahamiyati. Gelmint turlari. Me’da shirasini fizik–kimyoviy tekshirish. Me’da suyuqligini mikroskopda tekshirishga tayyorlash. Najasni fizik va kimyoviy xossalarini	24	N-8 A-16	12

		tekshirish. Najasni mikroskopik tekshirishga tayyorlash, gijja tuxumlarini topish.			
5	Uglevodlar almashinuvining buzilishi. Qandli diabetning laborator diagnostikasi	Glikirlangan gemoglobin (HbA1c); Qonda glyukoza; C-Peptid; Siydikning klinik tekshiruvi; Glyukoza (och qoringa, yuklash bilan) insulinga qarshi antitelalar; Langergans hujayralariga qarshi antitelalar;	12	N-4 A -8	6
6	Virusli gepatitlar laborator diagnostikasi	Virusli gepatit A laborator diagnostikasi . Virusli gepatit E laborator diagnostikasi . Virusli gepatit V laborator diagnostikasi . Virusli gepatit D laborator diagnostikasi . Virusli gepatit S laborator diagnostikasi ..	10	N-2 A-8	4
7	Qonning organizmda hosil bo‘lishi. Qon kasalliklari. Umumiy, Qo‘shimcha va maxsus analizlarga tekshirish.	Qon hosil bo‘lishi, tarkibi, vazifasi, qon hujayralarining umumiy ta’rifi. Shaklli elementlarning fiziologik ahamiyati. Qon tarkibining me’yoriy ko‘rsatkichlari va kasalliklarda o‘zgarishi. Qon kasalliklari. Har xil turdagi kamqonlikda, leykozda qon manzarasini slaydlardan ko‘rsatish. Qon guruhi va rezus–faktorni aniqlashning tibbiyotdagi ahamiyati. Qonni bezgak va qizil yuguruk, OITV va TORCh infeksiyaga tekshirishning diagnostik ahamiyati. Laborantning ish joyini jihozlash. Ishlatilgan biomateriallar va asboblarni zararsizlantirish. Barmoqdan qon olish texnikasi. Qonning umumiy tahlilga tekshirish. Qondan surtma tayyorlash, fiksatsiya qilish va bo‘yash. Qonni Qo‘shimcha tahlillarga tekshirish usullari. Qon guruhi va rezus–faktorni aniqlash. Qonni qizil yugurik, bezgak va TORCh infeksiyaga tekshirish uchun tayyorlash.	24	N-8 A-16	12
8	Orqa miya suyuqligining fiziologik ahamiyati, kasalliklarda o‘zgarish sabablari. Orqa miya suyuqligini klinik tekshirish.	Orqa miya suyuqligining fiziologik ahamiyati, kasalliklarda o‘zgarish sabablari. Orqa miya suyuqligini tekshirish uchun olish va tekshirishning diagnostik ahamiyati. Orqa miya suyuqligining fizik xossalarini tekshirish. Fibrin pardasini aniqlash. Orqa miya suyuqligining kimyoviy xossalarini tekshirish. Orqa miya suyuqligi tarkibini o‘rganish uchun preparat tayyorlash.	12	N-4 A-8	8
9	Seroz bo‘shliqlarida suyuqliklarning paydo bo‘lish sabablari va ularning tasnifi. Seroz suyuqliklarini klinik tekshirish.	Seroz bo‘shliqlarida suyuqliklarning paydo bo‘lish sabablari, ularning tasnifi, umumiy xossalari va ularning tarkibi. Ekssudat va transsudatni bir–biridan farqi.Seroz suyuqligining fizikaviy va kimyoviy xossalarini tekshirish. Ekssudat va transsudatlarni bir–biridan farqlash reaksiyalarini qo‘yish. Mikroskopik tekshirish uchun surtma tayyorlash va	18	N-6 A-12	8

		bo‘yash.			
10	Balg‘am hosil bo‘lishi va uning tarkibi. Balg‘amni klinik tekshirish.	Balg‘am hosil bo‘lishi. Nafas yo‘llari va a’zolari kasalliklarida balg‘amning ko‘rinishi va tarkibi. Balg‘amni tekshirishning diagnostik ahamiyati. Balg‘amni fizikaviy xususiyatlarini tekshirish. Balg‘am mikroskopik tekshirish uchun preparat tayyorlash. Balg‘am tarkibidagi sil mikobakteriyalarini aniqlash. Tekshirilgan biomaterial va ishlatilgan idishlarni zararsizlantirish.	18	N-6 A-12	8
11	Biriktiruvchi to‘qima kasalliklari laborator diagnostikasi.	Revmatizm laborator diagnostikasi Revmatoid artritlaborator diagnostikasi . Tizimli sklerodermiya laborator diagnostikasi Tizimli qizil yuguruk laborator diagnostikasi .	12	N-4 A-8	8
12	Teri kasalliklarining tasnifi. Teri kasalliklarini klinik tekshirish.	Zamburug‘ kasalliklari turlari, rivojlanishi, Yuqish yo‘llari, klinik belgilari. Zamburug‘ kasalliklarini aniqlashda va tashxis qo‘yishda klinik tekshirishning diagnostik ahamiyati. Teri kasalliklarida keltirilgan biomaterialdan preparat tayyorlash. Tekshirilgan biomateriallar va ishlatilgan idishlarni zararsizlantirish.	18	N-6 A-12	8
13	Tanosil kasalliklari. Jinsiy a’zo ajratmalarini klinik tekshirish.	Tanosil kasalliklari. Kasallikni oldini olish uchun olib boriladigan Chora tadbirlar. Qinning tozalik darajasi va uning tarkibi. Jinsiy a’zo ajratmalarini tekshirishning diagnostik ahamiyati. Qin ajratmasidan tayyorlangan preparatni qabul qilish, ro‘yxatga olish, bo‘yash usullari. Qorong‘ilashgan maydonda rangsiz spiroxetani topish uchun preparat tayyorlash. Mikroskopni ishga tayyorlash. Urug‘ suyuqligini tekshirish uchun nativ, surtma preparat tayyorlash, fiksatsiya qilish, bo‘yash usullari.	18	N-6 A-12	8
14	Odam immune tanqislik infeksiyasi laborator diagnostikasi.	Epidemiologiyasi, OIV yuqish yo‘llari: Biologik materiallar virus miqdoriga ko‘ra xavf guruhlariga bo‘linishi. Virus yoki uning antigenlariga qarshi antitelolar va OIV ayrim antigenlarini aniqlash. Ekspress testlar Immunoferment analiz Immunobloting Oqim sitoflyuorimetriyasi	10	N-2 A-8	6
Jami			**216**	**N -72** **A-144**	**108**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchi lar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. G.S.Aripova, N.S.Nazarova “Klinik laboratoriya tekshirish usullari” Toshkent, “Abu Ali ibn Sino” nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent, 2007 yil.

2. A.N.Aripov “Klinik diagnostika bo‘yicha yo‘llanma”, Toshkent, “Ilm ziyo” 2006 yil.
3. N.H. Abdullaev “Funksional va klinik tashxis bo‘yicha tekshirish usullari” Toshkent –“Ilm ziyo”- 2005 yil.

4. N.H. Abdullayev, H. Y. Karimov, T.Y. Umarova, A.H. Usmonxo‘jayev «Funksional va klinik laboratoriya tashxisi bo‘yicha tekshirish usullari» Toshkent, «ILM ZIYo», 2005y.

5. А.Жалялов “Клиническая лабораторная диагностика” Москва, издателская группа “ГЕОТАР-Медиа”Москва, 2012г.

6. К.В. Александрова “Основы клинические биохимии” Киев, 2011 г.

7. А.А.Кишкун “Руководство по лабораторным методом диагностики”,Москва, издателская группа “ГЕОТАР- Медиа”Москва, 2007г.

8. В.В.Медведев “Клиническая лабораторная диагностика”,“Медиа” Москва, 2006 г.

9. G.S.Aripova, N. S. Nazarova “Klinik va biokimyoviy tahlillarining me’yornomasi” Toshkent, “Retush”, 2005 yil.
10. А.И.Воробёв “Руководство по гемотологии”, издателская группа “ГЕОТАР- Медиа”, Москва, 2005г
11. G.S.Aripova, N. S. Nazarova “Klinik laboratoriya tekshirish usullari fanidan ma’ruza tezislari”Toshkent, “Retush”, 2004 yil.
12. G.S.Aripova, N. S.Nazarova “Klinik va biokimyoviy tekshirish usullari fanidan o‘quv qo‘llanma” Toshkent, “Retush”, 2004 yil.

Internet manbalari:

1.Med.uz
2.www.med.ru
3.http:// medline.uz
4. www.meddeks.ru.
5.www.ziyo.net.

6. www.google.ru

7.rusmedserv.com
8.www analizi.ru
9.medwww-knigi-laboratoriya
10.www. tmed.uz
11.ziyouz.com.
12.Aim.Uz
13. kingmed.info/knigi/kli..

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910205- “Funktsional diagnostika ishi” mutaxassisligi

MIKROBIOLOGIYA VA MIKROBIOLOGIK TEKSHIRISH USULLARI

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya	**Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi**
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**3.03**
Ajratilgan auditoriya soat:	**72**

Toshkent 2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchilar: Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o‘qituvchisi: A.M. Bariyeva

Taqrizchilar:

1 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh o‘qituvchisi: T. M. Kamalova

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya” kafedrasi professori: Z. Nuruzova

1.O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Mikrobiologiya va epidemiologiya asoslari**
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	9
Dasturning maqsadi	- talabalarga bakteriologiya, virusologiya, immunologiya, mikologiya, parazitologiya sohasidagi bilimlarning nazariy, amaliy asoslarini, qonuniyatlarini va Yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchisiga zamonaviy tashxis qo‘yish, davolash, kasallikning oldini olish usullarini o‘rgatish, hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	– Yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tasnifi, tinktorial, kultural, bioximik, antigenlik xususiyalarini, kasallikni etiologiyasi, manbasi Yuqish yo‘llari, klinik kechishi, davolash va oldini olish usullari asosda ularga bakteriologik virusologik va serologik tashxis qo‘yishni bajara olish, mikrob kulturasi, patologik materiallardan surtma tayyorlash, ularni oddiy va murakkab usullarda bo‘yash, mikroskop bilan ishlash va preparatlarni immersion sistemada to‘g‘ri diagnostika qilish, patologik materiallardan patogen bakteriyalar va viruslarni ajratib olish, serologik usullarda Yuqumli kasalliklarga tashxis qo‘yish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar
Bilim	– Mikrobiologiya va epidemiologiya asoslari fani va uning vazifalari; – mikroorganizmlarning morfologiyasi, fiziologiyasi va kimyoviy tarkibi, ultrastrukturasi; – mikroorganizmlar ajratadigan moddalar; – mikroorganizmlar genetikasi; – tashqi muhit omillarining mikroorganizmlarga ta’siri; – mikroorganizmlarni tabiatda tarqalishi; – spiroxeta va rikketsiyalarga umumiy xarakteristika; – viruslarga umumiy xarakteristika; – bakteriofaglar, tibbiyotda fagni qo‘llanishi; – antibiotiklar, Yuqumli kasalliklarning kimyoterapiyasi va kimyoprofilaktikasi; – infeksiya xaqida tushuncha. Immunitet xaqida tushuncha; – Yuqumli kasalliklarning maxsus immunoprofilaktikasi va immunoterapiyasi; – allergiya va anafilaksiya.
Ko‘nikma	– Bakteriologik laboratoriya tuzilishi va jihozlari bilan ishlash; – Mikrobkulturasidan surtma tayyorlash, fiksasiya qilish; – Surtmapreparatni oddiyusullarda bo‘yash; – mikroskop bilan ishlash; – zararli materiallarni zararsizlantirish; – qo‘l va ish joyini dezinfeksiya qilish; – sterilizasiya asboblarida ishlash; – 1 milliard mikrob kulturasini tayyorlash; – sof kulturani antibiotiklarga sezgirligini disklar yordamida aniqlash; – dori preparatlarini sterillikka tekshirish va natijani o‘qish.

O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Anatomiya, Fiziologiya va patologiya, Farmakalogiya va reseptura, Umumiy gigiyena va ekologiya, Valeologiya, Yuqumli kasalliklar, Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiy statistika, Hamshiralik ishi, Diyetologiya Jamoada hamshiralik ishi, Tibbiyot biologiyasi va odam genetikasi
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy A – amaliy L-laboratoriya ishi
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarni ng bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yyechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

1. O‘quv dasturining mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya to‘g‘risida tushuncha. Ularning tibbiyotdagi axamiyati. Mikroorganizmlarn ing klassifikasiyasi. Mikroorganizmlar morfologiyasi, struktura tuzilishi va fiziologiyasi.	Fanning qisqacha tarixi, vazifalari, nazariy va amaliy tibbiyotda tutgan o‘rni. Fanning boshqa tibbiy fanlar taraqqiyotidagi roli. Mikrobiologiyaning rivojlanish bosqichlari. O‘zbekistonda mikrobiologiya maktabining yaratilishi. Mikrobiologiya fanining maqsad va vazifalari. Prokariotlar, (bakteriyalar) ularni eukariotlardan (sodda jonivorlar, zamburug‘lar) farqi. Bakteriyalarning binar nomenklaturasi. Viruslar tasnifi: odam, hayvon, o‘simlik, bakteriyalar viruslari. Bakteriyalarni morfologiyasi. Bakteriyalarni oziqlanish tipi va mexanizmi bo‘yicha tasnifi. Autotroflar, geterotroflar, saprofitlar, absolyut va fakultativ parazitlar, prototroflar, auksotroflar. Oziq muhitlarga qo‘yiladigan talablar. Oziq muhitlar tasnifi. Bakteriya hujayrasidagi oqsillar, nuklein kislotalar, uglevod, yog‘lar biosintezining o‘ziga xos xususiyatlari. Bakteriyalar fermentlari. Bakteriyalarni o‘sishi va ko‘payishi. Xlamidiya, spiroxeta, aktinomiset, rikketsiya, zamburug‘ va sodda jonivorlarning	6	N-2 L-4	4

		ko‘payishini o‘ziga xos xususiyatlari. Mikroorganizmlarning hayot faoliyatida ishlab Chiqargan mahsulotlari hisoblangan fermentlar, toksinlar, pigmentlari, energiya ajratishi, nur taratishini ahamiyati. Mikroorganizmlarning fiziologiyasi. Bakteriologik, virusologik va immunologik laboratoriyalar haqida tushuncha. Bakteriologik, virusologik va immunologik laboratoriyalar tuzilishi, jixozlanishi va ishlash qoidalari. Mikroblarning morfologiyasi va struktura tuzilishi va ularni oddiy va murakkab buyash usullari. Surtma tayyorlash texnikasi. Spiroxeta, riikketsiya, xlamidiya, aktinomiset, va boshka mikroorganizmlar.			
2.	Mikroorganizmlarga tashki muxit faktorlarini ta’siri. Antibiotiklar va ximioterapevtik preparatlar. Mikroorganizmlar ekologiyasi. Suv, tuproq, havo, mikroflorasi. Odam organizmi normal mikroflorasi. Disbakterioz haqida tushuncha.	Mikroorganizmlarga tashqi muhit omillarining ta’siri. Mikroorganizmlarga kimyovi va fizik omillarning ta’siri. Antibiotiklarni kelib chiqishi biologik vazifasi va tabiati. Antibiotiklarni kimiyovi strukturasi bo‘yicha klassifikasiyasi. Ta’sir doirasi. Antibiotiklarni ta’sir mexanizmi. Antibiotiklarni asoratlari. Antibiotiklarga mikroorganizmlarni chidamli variantlarini shakillanish mexanizimlari. Sanitar mikrobiologiya asoslari, vazifsi. Tashqi muhit obyektlariga (suv, havo, tuproq va turar joylar, davolash profilaktik muassasalar) sanitar bakteriologik baho berish. Odam organizmi mikroflorasi va uning ahamiyati. Mikroorganizmlarning tashki muxit omillariga ta’siri. Mikroorganizmlar ekologiyasi va odam organizmi mikroflorasi. Kimyoterapevtik preparatlar. Antibiotiklar. Sterilizasiya. Sterilizasiya qilish usullari. Sterilizasiyani sifatini tekshirish. Dezinfeksiya. Aseptika, antiseptika. Antiseptik va dezinfektant moddalar Haqida tushuncha. Bakteriyalarni antibiotiklarga chidamliligini o‘rganish usullari. Mikroorganizmlarning antibiotika sezgirligini aniqlash usullari. Har xil shimdirilgan disklar bilan tanishish. Diffuz usulda mikroblarni antibiotikka sezgirligini aniqlash. Dori preparatlarni sterillikka tekshirish.	10	N-2 L-8	4
3.	Infeksiya va immunitet xakida ta’limot.Immunoprofilaktika va immunoterapiya.	Yuqumli kasallikni kelib chiqish sharoitlari. Yuqumli kasallik jarayonini o‘ziga xos xususiyatlari. Yuqumli kasalliklar Yuqish yo‘llari, davrlari. Immunitetning hozirgi zamon ta’rifi. Immunitet turlari (tug‘ma, hayot davomida orttirilgan, tabiiy, sun’iy, aktiv, passiv, steril, nosteril va boshqalar). Fagositoz. Fagositoz haqidagi ta’limotning rivojlanishida	6	N-2 L-4	4

		I.I.Mechnikovning roli. Serologik reaksiyalar. Immunoprofilaktika. Immunoterapiya.			
4.	Ichak infeksiyalari oilasiga kiruvchi qo‘zg‘atuvchilar to‘g‘risida tushuncha va ular keltirib Chiqaradigan kasalliklar va laboratoriya diagnostikasi.	Enterobacteriaceae oilasi vakillariga umumiy tasnif. Qorin tifi va paratif qo‘zg‘atuvchilari morfologik, kultural, biokimyoviy xususiyatlari, antigen tuzilishi. Bakteriya tashuvchilik. Maxsus profilaktikasi va davolash. Ovqatdan zaxarlanishni chaqiruvchi mikroorganizmlarga xarakteristika. Botulizm qo‘zg‘atuvchisi morfologik, kultural xususiyati, patogenezi. Ichak infeksiyalari oilasiga kiruvchi qo‘zg‘atuvchilar keltirib chiqaradigan kasalliklarning laboratoriya diagnostikasi. Qusiqni va najasni bakteriologik tekshirishga olish qoidalari. Laboratoriyaga yo‘llanma to‘ldirish. Laboratoriya tashxisi.	12	N-4 L-8	4
5.	Yiringli-yallig‘lanish kasalliklari qo‘zg‘atuvchilarining umumiy xarakteristikasi.	Stafilokokk, streptokokklar taksonomiyasi. Patogenlik xususiyatlari: toksinlari, patogen fermentlari. Stafilokokklar keltirib chiqaruvchi Yuqumli kasalliklarning patogenezi va ularning yatrogen kasalliklar keltirib chikarishdagi roli. Davolash va maxsus profilaktikasi. Mikrobiologik diagnostikasi. Yiringli-yalliglanish kasalliklarining ko‘zg‘atuvchilari. stafilokokklar, streptokokklar, pnevmokokklar va meningokokklarning laboratoriya tashxisi.	8	N-4 L-4	4
6.	Xavo-tomchi infeksiyasi: sil, moxov, bo‘g‘ma va ko‘k yo‘tal ko‘zg‘atuvchilariga xarakteristika.	Sil, moxov, bo‘g‘ma va ko‘k yo‘tal qo‘zg‘atuvchilarining morfologiyasi va xossalari. Atipik mikobakteriyalar. Mohov qo‘zg‘atuvchisi morfologiyasi, kasallik patogenezi. Xavo-tomchi infeksiyasi ko‘zg‘atuvchilarining keltirib chiqaradigan kasallilarning laboratoriya diagnostikasi. Maxsus profilaktikasi. Tomoq va burundan surtma olish. Balg‘amni laborator tekshiruv yig‘ish. Laboratoriyaga yo‘llanma to‘ldirish. Laboratoriya tashxisi.	8	N-4 L-4	4
7.	Teri-tanosil kasallik qo‘zg‘atuvchilarining xossalari va ularni laborator diagnostikasi.	Teri-tanosil kasallik qo‘zg‘atuvchilarining xossalari va ularni laborator diagnostikasi. Anaerob infeksiya qo‘zg‘atuvchilari. Qo‘zg‘atuvchilarning umumiy xossalari va kasalliklarning laborator diagnostikasi.	6	N-2 L-4	4
8.	O‘ta xavfli infeksiya ko‘zg‘atuvchilari-ning o‘ziga xosligi va laboratoriya	O‘ta xavfli infeksiya ko‘zg‘atuvchilarining asosiy xususiyatlari.Zoonoz kasallik qo‘zg‘atuvchilari: o‘lat, kuydirgi, brusellyoz qo‘zg‘atuvchilari. Morfologiyasi. Kultural, biologik xususiyatlari. Maxsus profilaktikasi	6	N-2 L-4	4

	diagnostikasi.	va davolash.O‘ta xavfdi kasalliklarda bakteriologik tekshirish uchun balg‘am, najas, qon va boshqa materiallarni olish qoidalari. Laboratoriyaga yo‘llanma to‘ldirish.Laborator tashhis qo‘yish usullari. Maxsus oldini olish Choralari. Mikrobiologik diagnostikasi.			
9.	Virusli infeksiyalar haqida tushuncha va ularning laboratoriya diagnostika usullari.	Umumiy xarakteristikasi. Tasnifi. Virusli infeksiyalar. Gripp kasalligini Chakiruvchi viruslar.Paragripp, paratit, kizamik kasalliklarini Chakiruvchi viruslar. Gepatit A,V, S, D, Ye, F, TTV – qo‘zg‘atuvChisi. Odam immuntanqislik virusi. Tojsimon virus(COVID 19) epidemiologiyasi va profilaktikasi.Vaksinopro-filaktikasi. Qonni bioximiyaviy, immunologik va serologik (virusli gepatit markerlari, I.F.A) tekshiruvga olish qoidalari. Laboratoriyaga yo‘llanma to‘ldirish.OITS va gepatit A, V, S, D, Ye viruslarining laborator diagnostikasi va profilaktikasi.	10	N-2 L-8	4
Jami:			**72**		**36**

2. O‘quvchilarni ng bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchi lar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muxamedov I.M. va boshq. Medisinskaya mikrobiologiya, virusologiya i immunologiya. Darslik. Toshkent. 2011 y.
2. Aliyev Sh.R., Muxamedov I.M., Nuruzova Z.A. “Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma”. Toshkent. 2013y.
3. Qurbonova S.Y. “Mikrobiologiya va immunologiyadan amaliy mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma”. Toshkent, 2015 y.
4. Zverev V.V. Medisinskaya mikrobiologiya, virusologiya i immunologiya. Darslik. Moskva, 2016 y..
5. Muxamedov I.M. va boshq. “Umumiy virusologiya» O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2012 y..
6. Muxamedov I. M. va boshqalar. “Tibbiyot virusologiyasi» O‘quv qo‘llanma Toshkent, 2013 y..
7. Muxamedov I.M. vaboshq. KliniCheskaya mikrobiologiya. VraChlaruchunqo‘llanma. Toshkent, 2016y.
8. Saryov V.N. Mikrobiologiya, virusologiya i immunologiya. Darslik. Moskva, 2010 y..
9. G. Tortora. Mikrobiologiya, 2015 y.
10. Murray P.R.Medical Microbiology. Elsevier Mosby. 2015.
11. Y. Levinson-Medikal Microbiology. California,2015.

Internet saytlari

1. http://www.ziyonet.uz
2. http://www.microbiology.ru
3. http://immunology.ru
4. http://www.rusmedserv.com/mycology/html/jornals.html

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910205- “Funktsional diagnostika ishi” mutaxassisligi

DEZINFEKSIYA ISHI

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya	Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi
O‘quv rejadagi tartib raqami:	3.04
Ajratilgan auditoriya soat:	72

Toshkent 2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchi: M.U.Mukumova
Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: T.J. Kamolov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi saqlash xizmati bosh shifokori

F.I. Salomova TTA Atrof-muhit gigienasi kafedrasimudiri

1. O‘quv dasturiga ko‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Dezinfeksiya ishi**
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	14
Dastyrning maksadi	O‘zbekiston Respublikasida va dunyoda uchragan Yuqumli kasalliklarni tarqalishini taxlil kilish , epidemiyaga qarshi profilaktika ishlarini olib borish va dezinfeksiya ishlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallash. Zamon talabiga javob bera oladigan, jahon standartlariga mos keladigan, Yuqori malaka va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, har tomonlama etuk tibbiy xodimlarni tayyorlash. O‘quvchilarni sifatli profilaktika yordamini ko‘rsatishda shifokor yordamchisi mutaxassisligi bo‘lib Yuqumli kasalliklar o‘chog‘ida bemorlarni vaqtida ajratish, Yuqumli kasalliklarni tarqalish qonuniyatlarini bilish, bemorni va u bilan muloqotda bo‘lgan shaxslarni vabuyumlarini zararsizlantirish ishlarinin olibborish, tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish tekshirish, epidemiyaga qarshi dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya chora tadbirlarini o‘tkazish, kasalliklar o‘chog‘ini epidemiologik tomonidan tibbiy nazoratini olib borish. DPMlar sharoitida dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash, ularni qo‘llash, saqlash va ularning sifatini nazorat qilishnazariy asoslari va amaliy ko‘nikmalarni o‘rganish.
O‘zlashtirish (o‘kitish) natijalari	-Yukumli kasalliklarning Yuqishi va tarqalishi, uni oldini olish , o‘choqda olib boriladigan ishlarini tashkil qilish , karantin va dispanserizatsiya ishlari to‘grisida bilimlar shakllanadi; -yukumli kasalliklarning profilaktikasi va epidemiyaga qarshi ishlarida dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya ishlari va sterilizatsiya hakida nazariy asoslari o‘rganiladi; - bemorlar bilan suxbat o‘tkazish, ularni aloxidalash, evakuatsiya va gospitalizatsiyasini o‘tkazish , karantin ishlarini tashkil qilish, dezinfeksiyava sterilizatsiya sifatini nazoratini olib borish, kimyoviy dezinfeksiya moddalarini ishlatishva unda extiyot choralari hakida ko‘nikmalar o‘rganiladi.
Bilim	-Modulning qisqacha tarixi, uning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar,tibbiyotda dezinfeksiya tadbirlarining ahamiyati, Yuqumli va parazitar kasalliklarga qarshi kurash yutuqlari; -mexanik, fizikaviy va kimyoviy usullarining ahamiyati, qo‘llanilishi -dezinfeksiya ishi bo‘limining hisob va hisobot hujjatlari -dezinfeksiyalovchi moddalar ro‘yhati va ularning xususiyati; - o‘choqlarda joriy va yakuniy dezinfeksiyani o‘tkazish, - DPMlarda dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish, olib borish va uni nazorat kilish; - tashqi ob’ektlardan surtmalarni olish; - tibbiyot asboblarni sterilizatsiyasi va undan oldingi tozalov ishlarini o‘tkazganligini nazorati; - dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarining maqsadi, vazifalari , usullari va vositalari ; -turli xil ob’ektlarni dezinseksiya qilish uchun kerakli preparatlar miqdorini aniqlash; - turli xil apparatlarni ishlatish , kamchiliklarni tuzatish; -dezinfeksion kameralarni ishga tayyorlash, ishlatish, va ishini nazorat qilish; -dezinstruktor va dezinfektor vazifalarini bajarish;

	- tibbiy hujjatlarni yuritish; - shaxsiy ximoya kiyimni ishlatish va zararsizlantirish; -xodimlarni shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish
Ko‘nikma	- O‘zbekiston Respublikasi chegarasini sanitar qo‘riqlash ishlari; - Yuqori foizli suyuq xoldagi asosiy dezinfeksiyalovchi moddalar va ulardan ishchi eritmalar tayyorlash; - tarkibida xlor saqlovchi kukun ko‘rinishidagi dezinfektantlardan eritma tayyorlash; - bemorning ajratmalari , idishlari, ovqat qoldiqlari, ichki kiyimlari, oqliklarni zararsizlantirilishi; - transport vositalari dezinfeksiyasi; - DPM larda tibbiy xodimlarni dezinfeksiya ishi bo‘yicha malakasini nazorat qilish; - tashqi ob’ektlardan surtma olish; - dezinfeksiyalovchi eritmalarda faol xlor miqdorini aniqlash; -tibbiyot asboblarni dezinfeksiyasi , sterilizatsiya va undan oldingi tozalov ishlarini o‘tkazganligini nazorati; - MSBlarni tekshirish va dalolatnoma yozish; - dezinseksiyalovchi preparatlardan eritma, suspenziya, emulsiyalar tayyorlash va undan foydalanish; - turli xil ob’ektlarni dezinseksiya qilish uchun kerakli preparatlar miqdorini aniqlash; - turli xil apparatlar va dezinfeksion kameralarni ishga tayyorlash , ishlatish, ishini nazorat qilish; - deratizatsiyaning mexanik va kimyoviyusullaridan, vositalaridan foydalanish; - dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya ishlari rejasini tuzish; - dezinstruktor va dezinfektor vazifalarini bajarish; - Yuqumli kasalliklarni hisobga olish va hisobot formalarini rasmiylashtirish; - maxsus ximoya kiyimni ishlatish va zararsizlantirish; - o‘ta havfli infeksiyalarni tarqalish xavfi bo‘lganda olib boriladigan profilaktik tadbirlarni bajarish
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bogliq bo‘lgan fan nomi	Mikrobiologiya,Biologiya,Yukumli kasalliklar,Epidemiologiya asoslari,Tibbiy parazitologiya,Kimyo,Umumiy gigiena.
O‘qitishni tashkiliy shakli	N - Nazariy ta’lim; A - Amaliy ta’lim; NA - Nazariy va amaliy ta’lim birgalikda tashkil etiladi; MX - Maxsus xonada o‘tkaziladigan mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshirik

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami auditoriya soati	O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustakil ta’ lim
1	Dezinfeksiya , maqsadi, vazifalari,unga xissa qo‘shgan olimlar.	“Dezinfeksiya ishi” moduli haqida tushuncha,uning maqsadi, vazifalari, dolzarbligi. modulning rivojlanish tarixi, boshqa tibbiy modullar bilan bog‘liqligi. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda dezinfeksion tadbirlarni ahamiyati. Modul rivojlanishida o‘zbek va rus olimlarining qo‘shgan xissasi. Hozirgi vaqtda zamonaviy dezinfeksiya vositalaridan samarali foydalanish va uning turlari.	2	N	2
2	Dezinfeksiyaning turlari, usullari va vositalari.	Dezinfeksiyaning amaliyotdagi ikki turi, ularning farqi. Mexanik, fizik, kimyoviy va biologik usullarihaqida umumiy ma’lumotlar, qo‘llanilishi va ta’siri. Kimyoviy vositalarni saqlash va samarali qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlari, eng muhim dezinfeksiyalovchi moddalarning xususiyati. Mukammal va joriy tozalov ishlarini o‘tkazish.Dezinfeksiyalovchi moddalarni tashqi ko‘rinishi, suvda eruvchanligi, rangi, xidi va bir-biridan farqini aniqlash qoidasi. Yuqori foizli suyuq xoldagi asosiy dezinfeksiyalovchi eritmani tayyorlash dezinfeksion vositalar yordamida zararsizlantirish uchun suv va xlor kukunini hisoblash va undan ishchi eritma tayyorlash. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan buyruqlar asosida ishlash.	6	NA	2
3	Davolash-profilaktika muassasalarida joriy dezinfeksiyani o‘tkazish qoidalari	DPMlarda dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish, olib borish va uni nazorat qilish. Poliklinika, tug‘ruqxona, jarrohlik bo‘limlari va Yuqumli kasalliklarda dezinfeksiya o‘tkazish qoidasi. Joriy va yakunlovchi dezinfeksiya o‘tkazish va uning inson sog‘ligi uchun ahamiyati.	6	NA	2
4	Infeksiyalarning ayrim guruhlari uchun bajariladigan dezinfeksiyasi.	Ichak infeksiyalari (vabo, dizenteriya, virusli gepatit A va boshqa) o‘chog‘ida dezinfeksiya ishlari. Nafas yo‘llari infeksiyalari (meningokokkli, bo‘g‘ma, gripp va boshqa) bo‘limida olib boriladigan dezinfeksiya tadbirlari. Sil kasalligi va qon infeksiyalari o‘chog‘ida dezinfeksiyani olib borilishi va	6	NA	2

		uning inson sog‘ligi uchun ahamiyati. Tashqi muhit (oshxona idishlari, oqliklar, o‘yinchoq) ob’ektlari va bemor buyumlarini zararsizlantirish qoidalari, qo‘llaniladigan eritma va ta’sir etuvchi vaqti(ekspozitsiya)ning ahamiyati. Transport vositalarining dezinfeksiyasi.			
5	Dezinfeksiya sifatini nazorat qilish.	Dezinfeksiya sifatini nazorat qilishda ishning borishini ko‘zdan kechirish, bakteriologik, kimyoviy usullardan foydalanish. Zararsizlantirilgan tashqi ob’ektlardan surtmalar olish qoidasi. Dezinfeksiyalovchi vositaning kerakli miqdorini belgilash va uni amalda qo‘llash.	4	A	2
6	Sterilizatsiya haqida tushuncha.	Sterilizatsiyahaqida tushuncha, uni dezinfeksiyadan farqi. Aseptika va antiseptika qoidalari. SHifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda sterilizatsiyaning ahamiyati, roli va uning samaradorligi. Sterilizatsiya usullari (bo‘g‘, havo,gaz, kimyoviy yo‘li bilan) va jihozlari. Sterilizatsiya turlari(Yuqori bosimli bo‘g‘ bilan ishlash, nurlash yo‘li bilan, gaz yordamida). Sterilizatsiya xususiyatlari.	2	N	2
7	Tibbiy jihozlar sterilizatsiyasi, markaziy sterilizatsiya bo‘limi(MSB)ning ishi.	Tibbiyot jihozlarini dezinfeksiya, sterilizatsiya qilish qoidasi. Instrumentlarni sterilizatsiyadan oldingi tozalov ishlaridan o‘tkazish, cterilizatsiya sinamalarini o‘tkazish tartibi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Sterilizatsiya qilishni tekshirish. MSBlarga qo‘yiladigan talablar va amalga oshiriladigan tadbirlar. MSBning strukturasi, ish qoidalari.DPMlarda MSB ning ish qoidasi. Sterilizatsiya bo‘limining sanitariya-gigiena hamda sanitariya-texnik jihozlarni ko‘zdan kechirish. Sterilizatsiya rejimini nazorati. MSB da tibbiy hujjatlarni yuritilganligini tekshirish.	6	NA	2
8	Sterilizatsiya samaradorligini nazorat qilish.	Tibbiy asbob-uskunalarni sterilizatsiyadan o‘tkazish uchun ularni bo‘limdan qabul qilish va oldingi ishlovini tekshirish qoidasi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan amaldagi buyruqlar asosida asboblar sterillanganligining sifatini nazorat qilish.	4	A	2
9	Dezinseksiya haqida tushuncha, maqsadi, usullari. Asosiy	Dezinseksiya haqida tushuncha, uning maqsadi, vazifalari va uning ahamiyati. Bo‘g‘imoyoqlilarning biologik xususiyatlari, epidemiologik ahamiyati, zararli turlari va ularni Yuqumli kasalliklar tarqalishidagi roli.	6	NA	2

	dezinseksiyalovchi moddalar, repellentlar.	Dezinseksiya tadbirlari, usullari-mexanik, fizik, kimyoviy, biologik. Bug‘imoyoklilarga qarshi kurash chora tadbirlari.Keng qo‘llaniladigan dezinseksiyalovchi preparatlar ro‘yhati, klassifikatsiyasi, xususiyati. Insektitsidlarning turlari (ichak,kontakt,sintetik,insektitsidlar) ta’sir qilish mexanizmi. Repellentlar, ularning turi, ta’sir qilish mexanizmi, qo‘llanilishi. Dezinseksiyalovchi preparatlarning tashqi ko‘rinishi, bir-biridan farqi, xususiyati. Insektitsidlardan eritma, suspenziya, emulsiyani tayyorlash qoidasi, qo‘llash usullari. Turli xil ob’ektlarni dezinseksiya qilish uchun kerakli preparatlar miqdorini aniqlash. Insektitsidlarni tayyorlash va ishlatishda texnika havfsizligi, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.			
10	Bo‘g‘imoyoqlilarning ayrim turlariga qarshi kurash tadbirlari.	Ayrim bo‘g‘imoyoqlilar guruhi uchuvchi bo‘g‘imoyoqlilar (bit,burga, pashsha, chivin, kanalar), ularning bir-biridan farqi va Yuqumli kasalliklar tarqalishidagi roli. Ularga qarshi kurash chora tadbirlari. Dezinseksiyani o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladigan dori-vositalarining turi, foizi, ekspozitsiya ahamiyati. Turmushda uchraydigan hashoratlarga qarshi kurash(suvaraklar, sariq chumoli), ularni qirish choralari. Qon infeksiyalarida bo‘g‘imoyoqlilarni tashuvchi sifatida ahamiyati, o‘choqda o‘tkaziladigan dezinseksiyaning xususiyati. Yuqumli va somatik kasalliklar shifoxonasi qabul bo‘limida pedikulyozni aniqlash va sanitariya tozalovini o‘tkazish, qo‘llaniladigan vositalar, ekspozitsiya vaqti, ehtiyot choralari. Entomologiya bo‘limining ishi, hujjatlari.	6	NA	4
11	Dezinfeksiya va dezinseksiya uchun ishlatiladigan apparatlar, dezinfeksion kameralar.	Dezinfeksiya va dezinseksiya o‘tkazish uchun ishlatiladigan apparatlar, uning turlari, ishlatish tartibi (avtomaks, gidropult, dezinfal, flit, Suyuqlik purkagich apparat(avtomaks, gidropult, dezinfal, flit)larning tuzilishi, ishlatish qoidalari. Chang yutgich apparatining ishlatish xususiyati, aerozolli apparatlarni ishlatilishi. KDF-3 dezinfeksiya kamerasi, elektr toki yordamida ishlovchi TSNIDI dezokamerasi,harakatlanadigan dezinfeksiya kameralari). Dezinfeksion kameralar haqida tushuncha, turlari, tuzilishi qismlari, ishlatish	10	NA A	4

		qoidasi, ish yuritish jurnallari. Buyumlarni zararsizlantirish xususiyati. Dezinseksiyalovchi kamera turlari, ishlash qoidasi. Buyumlarni dezinfeksion kameralarda zararsizlantirish rejimi, sanitariya jihatidan ishlov berish. Dezinfeksiya kameralar ishini nazorat qilish, hujjatlarni to‘ldirish qoidasi.			
12	Deratizatsiya haqida tushuncha, maqsadi, usullari.	Kemiruvchilar oilasi haqida tushuncha, biologiyasi, turlari. Yuqumli kasalliklar tarqalishida kemiruvchilarning epidemiologik ahamiyati. Deratizatsiya tushunchasi, maqsadi, vazifasi, usullari. Deratizatsiyaning sanitariya va texnik tadbirlari va samaradorligini tekshirish. Laboratoriya jixozlari bilan tanishish. Ratitsidlar. Zaharli xo‘raklar tayyorlash, saqlash va ularni amalda qo‘llash. Xavfsizlik qoidalari, zaharlanish belgilari va zaharlanishda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.	2	N	2
13	Kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari, vositalari.	Kemiruvchilarga qarshi kurashda qo‘llaniladigan profilaktik va qirish tadbirlari. Aholi yashaydigan punktlarda deratizatsiya tadbirlarini tashkil etish. Deratizatsiya tadbirlarini samaradorligini tekshirish. Kemiruvchilarni bir-biridan farqi (kalamush, sichqon, qum va dala sichqonlar). Kemiruvchilarni ovlash qurollari, ularning tuzilishi, ishlash tamoyili. Ratitsidlar xususiyati, tashqi ko‘rinishi, qo‘llanilishi. Zaharli xuraklarni tayyorlash usullari va qo‘llanilishi, uni saqlash qoidalari.	6	NA	4
14	Profilaktika va epidemiyaga qarshi kurash chora - tadbirlari. Dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish . Mehnatni muhofaza qilish. Kadrlar tayyorlash.	Profilaktik va o‘choqli dezinfeksiya bo‘yicha O‘zR SSV-ning amaldagi buyruqlar va uslubiy tavsiyanomalari. Dezinfeksiya ishlarni tashkil etishda dezinfeksion stansiyaning ishi, bo‘limlari, hujjatlari (yillik, yarim yillik, kvartal xisobot jurnallari). Dezinfeksiya ishida mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Sog‘liqni saqlash tizimida kadrlar tayyorlash. Instruktor-dezinfektor vazifalari.. Dezinfeksion moddalarni saqlash qoidalari. Dezinfeksiya va deratizatsiya paytida ehtiyot choralariga rioya qilish. Dezinfeksion moddalar bilan zaharlanish va zaharlanganda birinchi tibbiy yordam. Dezinfeksiya ishlarini sifat ko‘rsatkichlari. Dezinfeksion stansiya, viloyat, shaxar, tumandagi dezinfeksiya bo‘limi strukturasi, funksional vazifalari. Dezinfeksiya,	6	NA	4

		dezinseksiya va deratizatsiya ishlarini rejalashtirish, tibbiy hujjatlarni yuritish qoidalari. Infeksiya o‘chog‘ida qo‘llaniladigan himoya kiyimining tiplari, uning kiyish va yechish qoidasi. Sifat ko‘rsatkichlarni taxlil qilish. Aholi o‘rtasida sanitariya-targ‘ibot ishlarini olib borish.			
Jami			**72**	**NA**	**36**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular uquv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublika SSVning Sanitariya Qoida va Me’yorlari, buyruqlari - 2005- 2017 yillar
2. Aholining sanitariya- epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida Qonuni, T. 2015 yil
3. M.R.Tilovov, A.R.Rustamov, S.A.Mustafoyev “Dezinfeksiya ishi” Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2007 yil.
4. Белая И. К. «Дезинфекция» Москва, 2013
5. Сыганова С. В. «Дезинфекция, дезинсексия дератизатсия,» Москва, 2012
6. Осипова В. Л. «Учебное пособие по дезинфекции». 2012йил, ГеоТарМед
7. Ушакова В. Н. «Мойка и дезинфекция». «Профессия» нашриёти, 2009

Internet manbalari

1. http://www.ziyonet.uz/
2. http://www.lex.uz/
3. http://www.google.com/
4. www. unesco,org
5. www.tma.uz.
6. www.gigiuena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910205- “Funktsional diagnostika ishi” mutaxassisligi

Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya	Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi
O‘quv rejadagi tartib raqami:	3.05
Ajratilgan auditoriya soat:	142

Toshkent 2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchi:

M.U.Mukumova

Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A.Djalilov

2-Respublika tibbiyot kolleji “Biokimyo” fani o‘qituvchisi

TRAS Medikal- laboratoriya mudiri. Tibbiyot fanlari doktori.

Yo.X.Azizov

1.O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari
Ajratilgan soat	142
Mavzular soni	10
Dasturning maqsadi	O‘quvchilarni ng fanga oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali shifokor-laborantga yordam berishida qator tahlillarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlar berish va nazariy bilimlarini takomillashtirish. Bemorga tashhis qo‘yishda qon va siydik tarkibidagi mikroelementlarni me’yoriy holatini bilish, ularga to‘g‘ri tashxis qo‘yish nazariy, amaliy mashg‘ulotlarda kasbiy mahoratni shakllantira olishga zamin yaratish. Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali laborantlarning biokimyoviy tekshiruvlarga oid bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlash. O‘quvchilarni ng o‘z mutaxassislik bo‘yicha integratsiyalashgan (fanlar aro bog‘liq) bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Inson xayoti faoliyatining turli yoshlar davrlarida asosiy qonuniyatlari, odam organizmidagi fiziologik va patologik jarayonlar to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladi. Infeksion havfsizlikni ta’minlash (sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tartib, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish) haqida tushunchaga ega bo‘ladilar; Feldsher-laborantlik ishi faoliyati doirasida profilaktik va davolash-diagnostik muolajalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshira oladi. Kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bilimiga ega bo‘ladi. Yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta’minlaydi va o‘rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita oladi. Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda biomateriallarni biokimyoviy taxlilini amalga oshira oladilar.
Bilimlar	– biokimyo va biokimyoviy tekshirish usullari fanining qisqacha tarixi, fan rivojiga hissa qo‘shgan olimlar; – biokimyo va biokimyo tekshirish usullarifaninig bo‘limlari; – oqsillarning biologik ahamiyati, xossalari va klassifikatsiyasi; – oddiy va murakkab oqsillar, ularning almashinuv patologiyasi; – fermentlarga umumiy xarakteristika, biologik ahamiyati va klassifikatsiyasi; – vitaminlarning umumiy xarakteristikasi va klassifikatsiyasi; – suvda va yog‘da eruvchi vitaminlarga umumiy xarakteristika berish; – energiya va moddalar almashinuvi haqida umumiy xarakteristikasi; – gormonlarga xarakteristika va ularning vakillari; – uglevodlarni umumiy xarakteristikasi va klassifikatsiyasi;

	– uglevodlar almashinuvi va almashinuv patologiyasi; – lipidlarga umumiy xarakteristika va klassifikatsiyasi; – lipidlar almashinuvi va almashinuv patologiyasi; – uglevodlar, oqsillar, lipidlar almashinuvining o‘zaro bog‘liqligi; – moddalar almashinuvida jigarning roli va jigar funksiyalari; – suv va elektrolitlarni organizmdagi ahamiyati; – elektrolitlar almashinuvi: natriy, kaliy, kalsiy, fosfor, xlor,temirni aniqlashning diagnostik ahamiyati; – qonningasosiy vazifasi, qon kasalliklari**.**
Ko‘nikmalar	– qon zardobini ajratib olish; – qon zardobidagi oqsil miqdorining tekshirish usullarini qo‘llash; – moChevina va kreatininning aniqlash usullarini qo‘llash; – qon zardobida bilirubinni aniqlash; – qon zardobida siydik kislotani aniqlash; – siydikda oqsil miqdorini aniqlash; – qon zardobi va siydikda amilaza aktivliginianiqlash; – AlAT va AsAT fermentlarning aktivligini aniqlash; – qon zardobidagi ishqoriy fosfataza faolligini aniqlashni. – vitaminlargaxosranglisifat reaksiya o‘tkazish; – qon zardobida vitaminlar miqdorini aniqlash; – qon zardobida gormonlarni aniqlash usullarini (IFA) qo‘llashni. – qondagi glyukoza miqdorini aniqlash usullari; – siydikda glyukoza miqdorini aniklash; – triglitseridlarni fermentativ usulda aniqlash; – xolesterinni miqdorini aniqlash; – past va Yuqori ziChlikdagi lipoproteidlarni aniqlash; – jigar sinamalarini tekshirish; – qon zardobida kalsiy, natriy, kaliy, fosfor, temir, xlor ionlarini aniqlash; – protrombin indeksini aniqlash; – plazmada fibrinogen miqdorini va fibrinogen aktivligini aniqlash; – revmatologik tekshirish usullarini qo‘llash; – koagulogrammani aniqlash.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fanning nomi	“Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari” fani kasbiy fan bo‘lib, dasturni amalga oshirishda o‘quv rejasida ko‘rsatilgan “Klinik laboratoriya tekshirish usullari”, “Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari”, “Analitik kimyo”, “Laboratoriya ishi texnikasi” kabi barcha umumkasbiy va kasbiy fanlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi ta’minlangan.
O‘qitishning tashkiliy shakli	N –nazariy ta’lim; A –amaliy ta’lim; NA –birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX –maxsus xonalarda mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib

O‘quvchilarni ng bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma,og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	«Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari» fani haqida qisqacha ma’lumot. Rivojlanish tarixi.	«Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari» fanining bo‘lim va vazifalari, fanlararo bog‘liqligi va rivojlanish tarixi. «Biokimyo va biokimyoviy tekshirish usullari» fanining rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar. Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari faninig bo‘limlari haqida ma’lumot. O‘quvchilarni zamonaviy biokimyo tekshirish usullari, asboblari, laboratoriyaning jihozlanishi, laboratoriyada ishlash qoidalari, laborantning vazifasi va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish. Qon zardobini ajratib olish. Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruqlari. Klinik laboratoriya va biokimyo laboratoriyasiga sayohat uyushtirish.	12	NA	4
2	Oqsillarga umumiy xarakteristika. Oqsillar almashinuvi va almashinuv patologiyalarini tekshirish usullari	Oqsillarga umumiy xarakteristika. Ularning organizmdagi ahamiyati. Oddiy va murakkab oqsillarga xarakteristika, vakillari, ahamiyati. Gemoglobin, nukleoproteidlarning organizmdagi roli. Oqsillarning hazm bo‘lishi va so‘rilishi. Mochevina sintezi. Kreatininning biologik va klinik ahamiyati. Nukleoproteidlar almashinuvi: hazm bo‘lishi, so‘rilishi, almashinuv patologiyasi. Xromoproteidlar almashinuvi va almashinuvidan kelib Chiqadigan kasalliklar.Oqsillarga xos reaksiyalar. Qon zardobida oqsil,gemoglobin, bilirubin, mochevina, kreatinin va siydik kislotani aniqlash usullari. Siydikda oqsil miqdorini aniqlash.	18	NA	8
3	Fermentlar. Fermentlar aktivligini tekshirish.	Fermentlarga umumiy xarakteristika, biologik ahamiyati. Fermentlarning klassifikatsiyasi. Fermentlarning tibbiyotdagi ahamiyati. Fermentlarning xossalari, fermentlar aktivligi. Qon zardobida amilaza aktivligini kolorimetrik usulda aniqlash. Siydikda amilaza aktivligini aniqlash. Qon zardobida aminotransferaza (AlAT - alaninaminotransferaza, AsAT -	14	NA	6

		aspartataminotrasferaza) fermentlarning aktivligini aniqlash. Qon zardobidagi ishqoriy fosfataza faolligini avtoanalizatorlarda aniqlash.			
4	Vitaminlar haqida tushuncha, tekshirish usullari.	Vitaminlarga umumiy xarakteristika. Klassifikatsiyasi. Suvda va yog‘da eruvChi vitaminlarga umumiy xarakteristika. Avitaminoz, gipovitaminoz va gipervitaminozlar haqida tushuncha berish va kelib Chiqish sabablari. Vitaminlarni aniqlash uchun ish joyini jihozlash. Vitaminlarni avtoanalizatorlarda aniqlash. Vitaminlarga xos rangli reaksiyalar o‘tkazish.	14	NA	7
5	Gormonlar haqida tushuncha.	Gormonlar haqida umumiy tushuncha berish. Gipofiz, qalqonsimon, me’da osti bezi, buyrak usti bezlari va jinsiy gormonlar haqida ma’lumot berish. Qon zardobida gormonlarni aniqlash uchun ish joyini jihozlash va reaktivlar tayyorlash. Qon zardobida TTG, LG, progesteron, testosteron gormonlarini aniqlash usullarini qo‘llash.	14	NA	10
6	Uglevodlarga umumiy xarakteristika. Uglevodlar almashinuvi va almashinuv patologiyalarini tekshirish usullari	Uglevodlar umumiy xarakteristikasi va ularning organizmdagi ahamiyati. Uglevodlarning klassifikatsiyasi. Monosaxaridlar, disaxaridlar, polisaxaridlar haqida umumiy tushuncha. Uglevodlar almashinuvi va almashinuv patologiyasi. Uglevod almashinuvida jigarning roli. Gipoglikemiya va giperglikemiya, kelib Chiqish sabablari. Qondagi glyukozani fermentativ usul, glyukozaga tolerantlik testi (TTG), glyukozametr yordamida va yuklama berish usullari bilan aniqlash. Siydikda glyukoza miqdorini aniqlash usullari.	14	NA	8
7	Yog‘larga umumiy xarakteristika. Yog‘lar almashinuvi va almashinuv patologiyalarini tekshirish usullari	Yog‘larga umumiy xarakteristika berish. Oddiy va murakkab yog‘lar. Xolesterin va uning organizm uchun ahamiyati. Lipoproteidlar. Past, o‘ta past va Yuqori zichlikdagi lipoproteidlar. Lipidlarni hazm bo‘lishi va so‘rilishi. Lipidlar almashinuvining buzilishi va kelib chiqish sabablari. Triglitseridlarni aniqlash usullari. Qondagi xolesterin miqdorini analizatorlarda aniqlash. Past va Yuqori zichlikdagi lipoproteidlarni aniqlash.	18	NA	10
8	Energiya va moddalar almashinuvi. Moddalar almashinuvida	Energiya va moddalar almashinuvi haqida umumiy xarakteristika. Assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari. Uglevodlar, oqsillar, lipidlar almashinuvining o‘zaro bog‘liqligi. Moddalar almashinuvi patologiyasi. Jigar	12	NA	8

	jigar sinamalarining tekshirish.	funksiyalari haqida ma'lumot berish. Jigar sinamalarini tekshirish uchun ish joyini jihozlash. Qon zardobini ajratib olish. Jigar sinamalarini analizatorlarda tekshirish.			
9	Suv va mineral moddalar almashinuvi. Almashinuv patologiyalarini tekshirish usullari.	Gomeostaz to'g'risida tushuncha. Organizmda suv va elektrolitlarning ahamiyati. Elektrolitlardan natriy, kaliy, kalsiy, fosfor almashinuvi. Suv va elektrolitlar almashinuvining buzilishi va kelib Chiqish sabablari. Elektrolitlarni aniqlash uchun ish joyini jihozlash va qon zardobini ajratib olish. Elektrolitlarni: kalsiy, natriy, kaliy, fosfor, temir, xlorni analizatorlarda aniqlash.	12	NA	6
10	Qonning ahamiyati. Qon patologiyasida biokimyoviy tekshirish usullari.	Qon hosil bo'lishi, tarkibi, vazifasi, qon hujayralarining umumiy ta'rifi. Shaklli elementlarning fiziologik ahamiyati. Qon ivish mexanizmi. Qon kasalliklari haqida tushuncha. Koagulogrammani aniqlash. Qon ivishi vaqtini aniqlash. Protrombin indeksini aniqlash. Plazmada fibrinogenni va fibrinogen aktivligini aniqlash. Trombotestni aniqlash. Plazmaning rekalsifikatsiya vaqtini aniqlash. Revmatologik tekshirish usullari.	14	NA	4
Jami			**142**	**NA**	**71**

3. O'quvchilarni ng bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchi lar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. G.S. Aripova, A.M. Bobojonov, O.N. Razzoqov «Biokimyo va biokimyoviy tekshirish usullari» Toshkent, «ILM ZIYo», 2017 yil.
2. M.A.Xoshimova «Biokimyo va biokimyoviy tekshirish usullari» Toshkent, «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012 yil
3. G.S. Aripova, F.G. Po'latova, N.S. Nazarova, Z.S. Toirova «Klinik va biokimyoviy tekshirish usullari» Toshkent, «G'afur G'ulom», 2007 yil.
4. V.T. Muxammadiyev «Biokimyo». Toshkent, 2005 yil.
5. N.H. Abdullayev, H. Y. Karimov, T.Y. Umarova, A.H. Usmonxo'jaev «Funksional va klinik laboratoriya tashxisi bo'yicha tekshirish usullari» Toshkent, «ILM ZIYo», 2005 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. D.R. Nazirova « Биохимия и биохимические методы исследования » Toshkent, o'quv-uslubiy qo'llanma, 2013 yil.
2. В.С.Камышников «Методы клинических лабораторных исследований» Москва, «МЕДпресс-инфо» 2011 г.
3. А. А. Кишкун «Руководство по лабораторным методом диагностики» издателская группа «ГЕОТАР-Медиа» Москва, 2007 г

4. G.S. Aripova, N.S. Nazarova «Klinik va biokimyoviy tahlillarining me'yornomasi» Toshkent, «Retush», 2005 yil.
5. G.S. Aripova, N.S. Nazarova «Klinik va biokimyoviy tekshirish usullari fanidan o'quv qo'llanma» Toshkent, «Retush», 2004 yil.
6. N. S. Nazarova, G. Ismoilova «Biokimyo va biokimyoviy tekshirish usullari fanidan ma'ruza tezislari» Toshkent, «Retush», 2004 yil.

Internet manbalari

1. www.lex.uz.
2. www.med.uz
3. http:// medline.uz
4. www. meddeks.ru.
5. www. ziyonet.uz

6. www.google.ru

7. «Ziyo NET» kutubxonasi
8. tma.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910205- “Funktsional diagnostika ishi” mutaxassisligi

Gigiena va sanitariya gigiena tekshirish usullari

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya	Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi
O‘quv rejadagi tartib raqami:	3.06
Ajratilgan auditoriya soat:	96

Toshkent 2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchilar:

M.U.Mukumova	Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi katta o‘qituvchi

Taqrizchilar:

D.Jabborova	2-Respublika tibbiyot kolleji “Umumiy gigiena va ekologiya” fani o‘qituvchisi
B.I.Karimberdiev	TTA ko‘p tarmoqli klinikasi bosh shifokor o‘rinbosari

1. O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Gigiena va sanitariya gigiena tekshirish usullari**
Ajratilgan soat	96
Mavzular soni	11
Dasturning maqsadi	-Tashqi muhit omillarini (kimyoviy, fizikaviy, biologik, psixogen va ijtimoiy) inson salomatligiga salbiy ta’siri va keltirib Chiqaradigan kasalliklarini oldini olish, mehnat qilish qobiliyatini oshirish va umrini uzaytirishga qaratilgan Chora-tadbirlarni o‘rgatish; - ichimlik suvi, ovqat mahsulotlari, havoli muhit hamda tuproqni ifloslantiruvchi omillarni, ulardan sinama olishni, shuningdek taxlil qilish usullarini hozirgi zamon texnikasi va zamon talablari darajasida o‘rgatish;
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	– gigiena va sanitariya haqidagi tushunchaga ega bo‘latlar; – tashqi muhit omillarining inson sog‘ligiga ta’siri, ekologik muvozanat buzilishining atmosfera havosiga ta’siri, havoni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar; – kasalliklarning oldini olishda shaxsiy gigienaning ahamiyati haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar; – mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha gigienik qonunlar bilan tanishadilar. – ob’ektlarni sanitar-gigienik jihatdan nazorat qila oladilar, natijalarni baholay oladilar.
Bilimlar	– gigiena va sanitariya haqidagi tushuncha; – gigiena fanining vazifalarini va bo‘limlari; – tashqi muhit omillarining inson sog‘ligiga ta’siri; – ekologik muvozanat buzilishining atmosfera havosiga ta’siri; – tuproqning tuzilishini, tuproqning sanitariya–gigienik va epidemiologik ahamiyati; – chiqindi turlari, tarkibi ularning to‘planish me’yori; – oqava suvlar va suv havzalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish; – suvning sanitar–gigienik, fiziologik, epidemiologik ahamiyati; – ichimlik suvining sifatiga qo‘yiladigan sanitariya–gigenik talablar; – turar joylarning sanitariya va gigienik ahamiyati; – qishloq aholisi uchun turar joylarni loyihalash; – shahar qurilishiga qo‘yiladigan sanitariya–gigienik talablarni. – bolalar va o‘smirlar organizmining jismoniy, jinsiy va aqliy rivojlanishiga sanitariya-gigienik baho berish; – bolalar va o‘smirlar muassasalariga sanitariya-gigienik baho berish; – oziq-ovqat mahsulotlaridan laboratoriyada tekshirish uchun sinama olish; – hayvon va o‘simlik mahsulotlariga sanitariya-gigienik baho berish; – mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha gigienik qonunlar; – aqliy va jismoniy mexnatga sanitariya-gigienik baho berish; – davolash profilaktika muassasalariga qo‘yiladigan gigienik talablar; – terini tuzilishi, funksiyasi, teri gigienasi; – uyqu, kiyim-bosh gigienasi;

	– poyafzal tanlash, poyafzal gigienasi; – inson salomatligini saqlashda shaxsiy gigienaning roli; – qizlar gigienasi; - chiniqish turlari va usullarini (quyosh vannasi, havo vannasi, suvli muolajalar va jismoniy tarbiya)
Ko‘nikmalar	– isitgich va elektr asboblari, kislotalar, ishqorlar, oson alanga oluvchi moddalar; – o‘quv xonasining mikroiqlimini (havo haroratini, xona havosining namligi, havo harakati tezligi va atmosfera bosimini) aniqlash; – havoni ifloslantiruvchi manbalarni sanitariya va gigienik jihatidantekshirish va dalolatnoma to‘ldirish; – ochiq suv havzasi va manbalarini sanitariya-gigienik tekshirish; – turar joylarni sanitariya-gigienik jihatidan tekshirish kartasini to‘ldirish; – bolalar bog‘chalarini sanitariya-gigienik jihatdan nazorat qilish; – sinf xonalari mikroiqlimi, kundalik rejimi va dars jadvalini tahlil qilish; – maktab umumiy ovqatlanish muassasining sanitariya-gigienik jihatidan tekshirish; – oziq-ovqat mahsulotlarini fizik va kimyoviy tekshirish; – korxona havosini sanitariya-gigienik baholash uchun havodan sinama olish; – havo tarkibidagi zararli gazlarni tekshirish; – shovqinni aniqlash; - kasalxona ichki infeksiyalarini tarqalishini oldini olish
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fanning nomi	“Kasbiy faoliyatning huquqiy asoslari” “Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiy statistika” “Yuqumli kasalliklar” “Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari”
O‘qitishning tashkiliy shakli	N –nazariy ta’lim; A –amaliy ta’lim; NA –birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX –maxsus xonalarda mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarni ng bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma,og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O’qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	Gigiena va sanitariya gigiena tekshirish usullari fanining mohiyati va vazifalari. Tashqi muhit omillarining inson sog‘ligiga ta’siri.	Sanitariya gigiena va profilaktika haqida tushunchalar. Fanning vazifalari va maqsadi. Tashqi muhit omillarining inson sog‘ligiga ta’siri. Tashqi muhitni o‘rganish usullari. Davlat Sanitariya va Epidemiologiya Nazorati Markazlari hamda ularning vazifalari. Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining farmoni va Sog‘liqni Saqlash Vazirligi tomonidan chiqarilgan qonunlar.	2	N	3
2	Sanitariya-gigiena laboratoriyasi ishini tashkil qilish	Sanitariya va gigiena laboratoriyasi ishini tashkil qilishda oliy va o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlarining vazifasi. Bo‘lim laboratoriyasi va xonalarini zamonaviy asboblar bilan jihozlash, laboratoriyada mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidasi. Zamonaviy sanitariya va gigiena tekshirish usullari. Standartlar, Sanitariya qoidalari va me’yorlari to‘g‘risidagi tushunchalar. Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazlari turlari va ularning vazifalari haqida tushuncha.	8	A	3
3	Havoli muhit gigienasi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar va atmosfera havosini muhofaza qilish	Havoli muhitga ilmiy texnika revolyusiyasining ta’siri. Havoning chang, tutundan ifloslanishi, bakteriyalardan, zaharli kimyoviy moddalardan, radioaktiv moddalardan ifloslanishi. Havo tomchi infeksion kasalliklar tarqalishida havoning roli. Atmosfera havosini muhofaza qilishning sanitariya-gigienik chora tadbirlari. Quyosh radiatsiyasi. Uning inson a’zolariga fiziologik ta’siri. Atmosferaning past va baland bosimidagi o‘zgarishlar va ularning inson a’zolariga ta’siri. Tog‘ kasalligi, Kesson kasalligi, ularning profilaktikasi. Havo harorati, havo harakati tezligi, havo namligining inson a’zolariga ta’siri. Inson a’zolarida kechadigan issiqlik	16	NAS	6

		almashinuvi reaksiyasi. Havo mikroiqlimining inson a'zolariga ta'siri. Havo mikroiqlimiga sanitariya-gigienik baho berish. Atmosfera havosini muhofaza qilishda Davlat sanitariya va epidemiologiya nazorati markazining vazifalari. Havo haroratini aniqlashda ishlatiladigan maksimal va minimal termometrlarning tuzilishi va ularda ishlash. Termograf tuzilishi va uning ishlash prinsipi. Havo namligini aniqlovchi psixrometr (Assman, Avgust) asbobining tuzilishi va ular bilan ishlash. Havo harakat tezligini aniqlovchi asboblar: kosachali va parrakli anemometrlar, katotermometrlar tuzilishi va ularni ishlash prinsipi. Atmosfera bosimini aniqlashda ishlatiladigan asboblar: simobli, metalli barometrlar, barograflar, ularning tuzilishi va ular bilan ishlash.			
4	Tuproq gigienasi. Aholi yashash joylarini chiqindilardan tozalash.Kanalizatsiya va oqava suvlarini qayta tozalash	Ilmiy texnika revolyusiyasining tuproqqa ta'siri. Orol fojeasining Orol bo'yi mintaqalari tuproqlariga ta'siri. Tuproqning sanitariya-gigienik ahamiyati. Tuproqning fizik xossalari va epidemiologik ahamiyati. Tuproqning kuydirgi, oqsim, botulizm, qoqshol, gazli gangrena va invazion kasalliklar kelib chiqishidagi roli. Tuproqning ifloslanishi va o'z o'zini tozalash xususiyati. Aholi yashaydigan joylardan suyuq va qattiq chiqindilarni chiqarib tashlash: chiqindilarni yig'ish, tashish va zararsizlantirish Aholi yashaydigan joylarni kanalizatsiyalashtirishning ahamiyati. Oqava suvlarni tozalash va zararsizlantirish. Tuproqni Davlat Sanitariya va epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan muhofaza qilinishi. Tuproqning fizik va kimyoviy xossalarini o'rganib, unga sanitariya-gigienik baho berish. Tuproqdan bakteriologik, gelmentologik va kimyoviy tekshirish uchun namuna olish qoidalari va ularni tahlil qilish. Chiqindilarni zararsizlantirish usullari. Oqava suvlarini tozalash va zararsizlantirishni sanitariya va gigienik jihatidan nazorat qilish va ma'lumotnoma to'ldirish.	12	NAS	4
5	Suv gigienasi. Aholini	Suvning sanitariya-gigienik,	10	NA	8

	toza ichimlik suvi bilan ta’minlashdagi chora- tadbirlar	fiziologik, epidemiologik ahamiyati. Aholi yashaydigan joylarning suv ta’minoti. Suv iste’mol me’yori. Suvning fizikaviy xossalari, kimyoviy tarkibi, endemik faktor ekanligi. Suvning ifloslanishi va o‘z o‘zidan tabiiy tozalanishi. Ichiladigan suvga qo‘yiladigan Davlat Standartlari talablari. Aholini mahalliy va markazlashgan suv bilan ta’minlash. Vodoprovod stansiyasiga suvni tozalash va zararsizlantirish uchun sanitariya va gigienik talablar. Suvning sanitariya zonalari. Ekologik muhitning o‘zgarishida suvning roli. Orol fojeasini orolbo‘yi mintaqalari aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlashdagi roli. Ichimlik suvini muhofaza qilishdagi Davlat Sanitariya va Epidemiologiya Nazorati Markazlarining vazifasi. Ochiq suv havzalarini ichimlik suvi manbalari sifatida nazorat qilish, suvni sinamaga olish. Organoleptik, fizikaviy, kimyoviy va bakteriologik tarkibini tekshirish. Suvning ishqorligi, qattiqligi, oksidlanishini, xloridlar, temir, sulfatlarni, azot birikmalarini aniqlash. Suvni konservatsiya qilish usullari. Vodoprovod stansiyalarida suvni tozalash. Suvni kimyoviy birikmalar va fizik usullar bilan (tindirish, filtratsiya qilish, koagulyatsiya qilish, suzgiChdan o‘tkazish) zararsizlantirshni. Oqava suvlarni fizikaviy, kimyoviy holatini va ularni zararsizlantirishni nazorat qilish. Suv bilan ta’minlashda Davlat Sanitariya va Epidemiologiya Nazorati Markazlarining faoliyatini o‘rganish.			
6	Turar joylar va jamoat binolari gigienasi.Turar joylarga qo‘yiladigan sanitariyagigienik talablar.	Aholi salomatligini saqlashda turar joylarning ahamiyati. Turar joylar yer maydonini tanlashda shahar zonalarining sanitariya-gigienik ahamiyati. Turar joylarni qurish va rejalashtirishga sanitariya-gigienik talablar. Turar joylarni tabiiy va su’niy yoritish (yorug‘lik koeffitsienti, TYoK xona chuqurligi, xonalar yoritilganligini Vatt usulida aniqlash). Davolash profilaktika muassasalarini (Qishloq vrachlik punkti) qurishni planlashtirishda yerni relefi, shamollar yo‘nalishi, yer osti suvlari chuqurligini hisobga olish. Turar joylarni, jamoat binolarini, mahalliy va markazlashtirilgan isitish, shamollatish va shovqindan saqlashga qo‘yiladigan sanitariya-gigienik	12	NAS	4

		talablar. Sanitariya qoidalari va me'yorlari bilan tanishish. Aholi turar joylarini, jamoat binolarini, davolash profilaktika muassasalari binolarining qurilishini rejalashtirish Turar joylarni isitish, yoritish, shamollatishga bo'lgan talablar. Luksmetr apparati va uning ishlash prinsipi. O'quv laboratoriya xonalarining yoritilganligiga baho berish. Kasalxonalar palatalarining sanitariya-gigienik holatiga baho berish.			
7	Bolalar va o'smirlar muassasalariga qo'yiladigan gigienik talablar.	Bolalar va o'smirlar organizmi tuzilishining anatomik va fiziologik (Chaqaloqlik, maktabgacha yoshi, Kichik maktab yoshi, balog'at yoshida) hususiyatlari. Bolalar va o'smirlar muassasalariga qo'yiladigan sanitariya-gigienik talablar. Bog'cha va maktabni loyihalashga, qurilishiga qo'yiladigan sanitariya-gigienik talablar: a) bolalar bog'chalariga (yer uchastkasiga, guruh yacheykalariga, guruh maydonchalariga, sport maydonlariga, guruh xonalari jihozlariga, ovqatlanish muassasasiga, kir yuvish xonasiga) sanitariya-gigienik baho berish; b)Kichik maktab yoshida sinf xonalari, mebellari, kun tartibi, dars jadvallariga sanitariya-gigienik baho berish; v)balog'at yoshidagi o'smirlar kun tartibiga (dars jadvali, ovqatlanish rejimi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi, texnik vositalardan foydalanish) qo'yilgan sanitariya-gigienik talablar. Bolalar va o'smirlar muassasalarini sanitariya-gigienik nazorat qilishda Davlat Sanitariya va Epidemiologiya Nazorati Markazlarining vazifalari. Bolalar bog'chalarini sanitariya-gigienik jihatdan ya'ni, qurilishini, yozlik maydonchalari, sport maydonlari, guruh yacheykalari, ovqat tayyorlash bo'limi va ovqat mahsulotlarini saqlashni nazorat qilish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishini (ko'krak aylanasi, og'irligi, bo'yi, muskul kuchi, o'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash, emlash tartibini) tekshirish. Bolalar va o'smirlar muassasalarini qurilishiga ishlatilishiga sanitariya-gigienik talablar qo'yish. Bolalar va o'smirlarni jismoniy, aqliy va jinsiy rivojlanishini nazorat qilish.	14	NAS	4

8	Ovqatlanish gigienasi. Oziq ovqat mahsulotlarinning sifatiga sanitariya gigienik baho berish	Ovqatlanish gigienasining ahamiyati. Ovqat kaloriyaligiga sanitariya-gigienik baho berish Asosiy ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning inson a’zolariga fiziologik ahamiyati. Ko‘payib borayotgan kamqonlik, buqoq, jinsiy zaiflik, jismoniy zaiflik kelib chiqishida ovqatlanishning roli. Tayyor ovqat mahsulotlarini vitaminlashtirish va aminokislotalar bilan boyitish. Ovqat mahsulotlarini konservatsiya qilish usullari. Go‘sht va go‘sht mahsulotlariga sanitariya-gigienik baho berish, sut va sut mahsulotlariga, tuxumga, don va don mahsulotlariga sanitariya-gigienik baho berish. Ovqatdan mikrobli va mikrobsiz zaharlanishlar. Ovqat mahsulotlarini saqlash va transportirovka qilish Umumiy ovqatlanish muassasalarini qurishni rejalashtirish, qurish va jihozlash, ekspluatatsiya qilishni sanitariya jihatidan nazoratni qilish. Oshxona xodimlarining shaxsiy gigienasi va sanitariya bilimini nazorat qilish. Oshxona xodimlarini dispanserizatsiyadan o‘tishini nazorat qilish. Ovqat mahsulotlarini tekshirish usullari. Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini tekshirish: sinama olish, organoleptik, fizikaviy va kimyoviy usullarda tekshirish; sinamaga qo‘yilgan go‘shtni aniqlash. Kolbasalarni tekshirish: sinama olish organaleptik, fizikaviy va kimyoviy usullarda tekshirish. Baliqlarni tekshirish: sinama olish, organoleptik baholash, baliqni yangiligini aniqlash reaksiyasi; dudlangan baliq tarkibidagi osh tuzini aniqlash. Sut va sut mahsulotlarini tekshirish: sinama olish, organoleptik tekshirish; zichligi, kislotaligini, yog‘ini tekshirish; sut tarkibidagi surrogatlar (kraxmal, soda) ni tekshirish; sut mahsulotlarini organoleptik baholash, yog‘ini va kislotasini aniqlash. Mol yog‘ini tekshirish: sinama olish, organaleptik, fizik tekshirish; yog‘larning kislotaligini, cho‘kmasini, namligini, aldegid va ketonlarini aniqlash. Unni tekshirish: organoleptik xossalarini baholash, tarkibidagi	10	NA	8

		metallomagnit qo‘shilmalar miqdorini aniqlash; ombor zararkunandalari: qo‘ng‘iz, mita, kanalarni aniqlash va foizlarda hisoblash; unning namligini, kislotaligi, kleykovinasi va kulini aniqlash. Nonni tekshirish: sinama olish, organoleptik baholash; nonni namligini, g‘ovakligini va kislotaligini aniqlash. Tuzlangan karamni tekshirish: sinama olish, organoleptik baholash; kislotaligi va osh tuzini aniqlash; tuzlangan karam tarkibida «S» darmon dorisini miqdorini (mg larda) aniqlash. Konservalarni tekshirish: sinama olish, konserva shtampovkasi, germetikligini o‘rganish; quruq moddasi, tuz kislotaligini aniqlash. Spirtsiz ichimliklarini tekshirish: sinama olish, organoleptik tekshirish; turg‘unligi, solishtirma og‘irligini va kislotasini aniqlash. Tayyor taomlarni tekshirish: tayyor taomlarni tekshirish uchun sinama olish organoleptik baholash, ovqat tarkibidagi yog‘, karbon suv, mineral tuz va kaloriyasini aniqlash; taomnoma (menyu-raskladka) bo‘yicha kalloriyasini hisoblash; ovqat tarkibidagi minerallari va vitaminlari miqdoriga baho berish; oshxonani sanitariya-gigienik jihatdan tekshiruv xaritasini to‘ldirish, ma’lumotnoma yozish.			
9	Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo‘yiladigan sanitariyagigienik talablar.	Mehnat gigienasining vazifalari. Mehnat qilishning fiziologik asoslari. Ish faoliyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlari (mehnat va ishga gigienik xarakteristika). Aqliy va jismoniy mehnat, ish vaqtida tana vaziyati, holati, inson organlari holati. Charchash, o‘ta charchash . Organizmning zo‘riqishi, unga qarshi kurash chora-tadbirlari. Dam olishni va mehnat kunini to‘g‘ri tashkil qilish. Korxonalar mikroiqlimi. Sanoat changidan kelib chiqadigan kasalliklar (silikoz, antrakoz, silikatoz va boshqalar). Changga qarshi mahalliy va umumiy kurash Choralari. Ishlab chiqarishdan zaharlanishlar, organizmga zaharli kimyoviy moddalarning ta’siri. O‘tkir, surunkali zaharlanishlar. Zaharlanishlarning oldini olish. Shovqin tebranish va ularga qarshi kurash. Ishlab chiqarishdan shikastlanishlar, ularga qarshi	6	NA	4

		kurash chora-tadbirlari. Ishlab chiqarish korxonalari havosining tarkibini tekshirish. Havo tarkibidagi gazlar konsentratsiyasini REK (PDK) sini belgilash va korxona havosining bezararligiga kafolat berish.			
10	Davolashprofilaktika muassasalari gigienasi. Shaxsiy gigiena.	Davolash profilaktika muassasalari haqida tushuncha, kasalxona ichi infeksiyalari, ularni olshdini olish chora tadbirlari. "Davolash muassasalarini loyihalashtirish va qurishning sanitariya qoida va me'yorlari". "Kasalxona ichi infeksiyalari. Sanitariya epidemiologik qoidalar." "Davolash profilaktika muassasalarilarini loyihalashtirish qurish va ishga tushirish". O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Davolash profilaktika muassasalarida ish yuritish hujjatlari" haqidagi buyruqlar. Xona maydoni, jihozlanishi, "OIV/OITS kasalliginning tarqalishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar" haqidagi buyruqlar. Steril idishlardan, steril stoldan, xodimlardan, xonalardan va hokozalardan sinama olish. Inson hayotida shaxsiy gigienaning ahamiyati. Kun tartibining inson sog'ligiga ta'siri (mehnat, dam olish, uyqu, ovqatlanish, tanani jismoniy Chiniqtirish). Teri, soCh, tirnoq, og'iz bo'shlig'i, oyoq (poyafzal) gigienasi va ularni parvarish qilish. Kasalliklar kelib Chiqishini oldini olishda shaxsiy gigienaning roli.	6	NA	4
Jami			**96**	**NAS**	**48**

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchi lar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizov M.A. «Umumiy gigiena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.
2. Esonturdiyev S.S, Qarshiboyeva M.E, «Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.
3. Do‘schanov D.A, Iskandarova Sh.T, Solixo‘jayev S.S. «Umumiy gigiena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Shayxova G.I. «Ovqatlanish gigienasi» 2011yil.
2. Шайхова Г.И, Рахимов Б.Б. «ГигиениЧеское обоснование ратсионов питания при ожирения» Ташкент, 2010 год.
3. Отабоев Ш.Т, Искандаров Т. И. «Коммунал гигиена», Ташкент, 2010 год.
4. Дрожжина Н.А, Гурова А.И., Максименко Л.В., Пивен Е.А. « Руководство к лабораторным занятиям по гигиене питания » Книга 2. Москва. 2008 год.
5. Королев А.А. «Гигиена питания» Москва, 2006 год
6. Esonturdiev S.S, Qarshiboeva M.E. «Bolalar va o‘smirlar gigienasi» Toshkent, «Cho‘lpon» nashriyoti, 2002 yil.
7. N.M. Demidenko «Gigiena» Toshkent, 2002 yil.
8. Бахритдинов Ш.С. «Нутритсиология» Ташкент, 2001 год.

Internet saytlari:

www.lex.uz.
www.med.uz
http://meddeks.ru.
http://Karomatov.narod. ru.
www.medline.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910200 - Funksional diagnostika ishi

Gistologiya va gistologik tekshirish usullari fanidan

MODUL DASTURI

Kvalifikatsiya:	**1. Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi**
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**307**
Ajratilgan auditoriya soat:	**192**

Toshkent-2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchilar:

Z.A.Abduraxmanova	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
D.K.Mutalipova	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi bosh o‘qituvchi

Taqrizchilar:

Sh.T.Iskandarov	Sirdaryo viloyati bolalar ko‘ptarmoqli tibbiyot markazi bosh vrachi tibbiyot fanlari nomzodi
S.S.Xudayberdiyev	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaz Sirdaryo viloyati filiali direktori oliy toifali vrach

1.O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Gistologiya va gistologik tekshirish usullari
Ajratilgan soat	192
Mavzular soni	19
Dasturning maqsadi	- -o‘quvchilarning fanga oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali to‘qimalar hujayra va hujayralar aro tuzilmalardan iborat bo‘lib , maxsus vazifalarni bajarishga moslashgan organizmning muhim taraqqiyot, tuzilish va funksional elementi ekanligi to‘g‘risidagi nazariy bilimlarini takomillashtirish; - -gistologik preparatlar, plakatlar, elektronmikrofotografiyalar, sxemalar orqali a’zolarning mikroskopik tuzilishi va vazifalarini, gistologik preparatlarni tayyorlash bosqichlarini o‘rgatish orqali to‘qimalardan preparat tayyorlay olishga zamin yaratish; - -bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali laborantlarning gistologiya texnikasiga oid bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlash.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	- -gistologiya va gistologik tekshirish usullari fani haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar; - -hujayraninig tuzilishi, asosiy tarkibiy qismlari va ularning ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘ladilar; - -to‘qimalar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar; - a’zolarning gistologik tuzilishi va faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar; - -materialga gistologik ishlov berish va gistologik usullar yordamida mikropreparat tayyorlash, mikrotomda ishlay olish; - kesmalarni umumiy bo‘yash usullari, zarurat bo‘lganda maxsus bo‘yash usullari hamda parafin bloklarni tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
Bilim	- gistologiya va gistologik tekshirish usullari fani haqida tushunchani; - gistologiya fanining tibbiyotda tutgan o‘rni, rivojlanish tarixi, fanning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlarni; - gistokimyoviy, immunogistokimyoviy usullarini; - hujayraninig tuzilishi, asosiy tarkibiy qismlari va ularning ahamiyatini; - hujayraning umumiy va maxsus organoidlari va ularning vazifalarini; - to‘qimalar haqida tushunchani; - to‘qimalarning fiziologik va reparativ regenerasiyasini; - epiteliy to‘qimasining taraqqiyoti, faoliyati va tavsifini; - qon tarkibi, plazma va qon shaklli elementlarini; - biriktiruvchi to‘qimaning taraqqiyoti, organizmda joylashishi, uning tavsifini; - tog‘ay va suyak to‘qimalarining xillari va tuzilishini; - mushak to‘qimasining tavsifini; - asab to‘qimasining morfofunksional tavsifini; - asab tolalarining tuzilishi va turlarini; - qon tomirlar tasnifi, tuzilishini; - yurak devorining tuzilishini; - yurak o‘tkazuvchi sistemasini; - qon yaratuvchi va immun himoya a’zolarining taraqqiyoti, tuzilishi va faoliyatini; - nafas a’zolarining umumiy morfofunksional tavsifini;

	- teri va uning hosilalarini; - ovqat hazm qilish a’zolarining umumiy morfofunksional tavsifini; - ichki sekresiya bezlarining turlari, tuzilishi va gormonlarini gipotalamus orqali boshqarilishini - asab tizimiining morfofunksional tasnifini; - orqa miya va bosh miyaning tuzilishi, vazifasi, ahamiyatini; - buyrak, siydik nayi va qovuqning gistologik tuzilishi, faoliyatini; - tuxumdon, bachadon, bachadon nayining tuzilishi, faoliyatini; - urug‘don, urug‘ yo‘llari, prostata bezining tuzilishini; - ko‘rish a’zosini tuzilishini; - eshituv a’zosining gistofiziologiyasini; - ta’m bilish piyozchalarining tuzilishini; - qilish a’zolarining umumiy morfofunksional tavsifini; - ichki sekresiya bezlarining tuzilishi va gormonlarini; - asab tizimiining morfofunksional tasnifini; - orqa miya va bosh miyaning tuzilishi, vazifasi, ahamiyatini; - buyrak, siydik nayi va qovuqning gistologik tuzilishi, faoliyatini; - tuxumdon, bachadon, bachadon nayining tuzilishi, faoliyatini; - urug‘don, urug‘ yo‘llari, prostata bezining tuzilishi; - ko‘rish a’zosini tuzilishini; - eshituv a’zosining gistofiziologiyasini; - ta’m bilish piyozchalarining tuzilishini ***bilishi kerak***
Ko‘nikma	- mikroskopni ishlatish; - laboratoriya idishlarini nomlash, yuvish, saqlash va yorliqlash; - laboratoriya hujjatlarini to‘ldirish; - materialni olish, fiksasiya qilish; - materialni yuvish va suvsizlantirish-zichlashtirish; - materialni cingdirish, quyish; - -kesmalar tayyorlash; - olingan kesmalarni bo‘yash, suvsizlantirish, yoritish va yakunlash; - eozinning suvli eritmasini tayyorlash; - Erlixning nordon gemotoksilinini tayyorlash. - cuyakdan olingan materialni fiksasiyalash, yuvish, yog‘sizlantirish va dekalsinasiyalash; - lipidlarni Sudan III bo‘yog‘i bilan bo‘yash; - turli hujayralarning yadrosini, kiritma yoki mahsus tuzilmalarini mikroskopda ko‘rish; - hujayrasiz tuzilmalarni (til va gialin tog‘ay preparatida) mikroskopda ko‘rish; - turli epiteliyni mustaqil holda mikroskopda ko‘rish; - qonning shaklli elementlari eritrositlar, leykositlar, trombositlar tuzilishini mikroskopda ko‘rish; - biriktiruvchi to‘qima turlarini mikroskopda ko‘rib farqlash; - suyak va tog‘ay to‘qimasini mikroskopda ko‘rib o‘rganish; - mushak to‘qimalarini mikroskopda ko‘rib o‘rganish; - asab hujayrasining shakli, dendrit va akson tuzilishini mikroskopda ko‘rish; - miyelinli va miyelinsiz asab tolalarining tuzilishini o‘rganish; - mustaqil holda qon tomir preparatlarini mikroskopda ko‘rish; - arteriya va vena tomirlarining preparatlarini mikroskopda bir-biridan farqlash; - qon yaratuvchi immun himoya a’zolari tuzilishini mikroskopda

	o‘rganish; - teri preparatida epidermis, dermaning so‘rg‘ichsimon va to‘rsimon qavatlarining tuzilishini mikroskopda ko‘rish; - soch ildizi va tirnoq preparatini, yog‘ bezlarini mikroskopda ko‘rish; - til, qizilo‘ngach, qizilo‘ngachning me’daga o‘tish qismi, me’da devorini, ingichka va yo‘g‘on ichak preparatlarini mikroskopda o‘rganish; - kekirdak, bronx, o‘pka preparatini mikroskopda ko‘rish; - ichki sekresiya bezlarining tuzilishini mikroskopda o‘rganish; - buyrak, siydik nayi va qovuq preparatlarini mikroskopda ko‘rish; - tuxumdon, bachadon, bachadon nayi preparatlarini mikroskopda ko‘rish; - bosh miya, orqa miya, miyacha preparatini mustaqil holda mikroskopda ko‘rish; - vegetativ asab tuguni preparatlarini mustaqil holda mikroskopda ko‘rish; - o‘rta, ichki quloq tuzilishini mikroskopda ko‘rish; - ko‘zning muguz parda, sklera va to‘r pardacining tuzilishini mikroskopda ko‘rish; - O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqarilgan va amalda qo‘llanilayotgan buyruqlar bilan tanishish; - internet va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib mustaqil maruzalar yoki taqdimotlar tayyorlash; - o‘quv laboratoriya xonasida amaliy ko‘nikmalarni o‘rganish.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fanning nomi	“Anatomiya, fiziologiya va patologiya” “Klinik laboratoriya tekshirish usullari” “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika”
O‘qitishning tashkiliy shakli	N –nazariy ta’lim; A –amaliy ta’lim; NA –birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX –maxsus xonalarda mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma,og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishni tashkiliy	Mustaqil
1	“Gistologiya va gistologik tekshirish usullari” fanining mohiyati, rivojlanish tarixi. Gistologik tadqiqot usullari.	Gistologiya va gistologik tekshirish usullari fanining mazmuni, maqsadi va vazifasi. Gistologiya fanining tibbiy biologik fanlar bilan aloqasi. Gistologiya fanining tibbiyotda tutgan o‘rni. Gistologik tadqiqot usullari. Gistologiyaning tarixi. Mikroskopning yaratilishi va dastlabki gistologik tadqiqotlar. Gistologiya fanining rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar.	2	2	-
2	Gistologik tekshirish laboratoriyasi-ning ish faoliyati bilan tanishish.	Gistologik laboratoriyalarning asbob—uskunalari, jihozlarini o‘rganish. Mikrotom turlari bilan tanishish. Laborant-gistologning ish o‘rnini tashkil qilish. Texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalari bilan tanishish. Mikroskop bilan ishlash qoidalarini bilish. Turli obyektivlarda gistologik preparatlarni mustaqil holda o‘rganish.	4	-4	4
3	Mikrotexnika.	Gistologik preparatlarga qo‘yiladigan talablar. Turli usullarda materiallarni tayyorlash. Material olish yo‘llari. Fiksasiya haqida tushuncha. Fiksasiyalovchi vositalar va ularni ishlatilishi. Fiksasiyalovchi eritmalarni tayyorlash. Fiksasiya qoidalari. To‘qima bo‘lakchalarini spirtli batareyadan o‘tkazish. To‘qimalarga parafinni singdirishning qisqartirilgan usuli. Mikrotomlar va ular bilan ishlash. Mikrotom pichog‘ini mustaqil charxlash. Mikrotomda kesma olish texnikasi. Kesmalarni bo‘yashning ahamiyati. Bo‘yashdan oldin parafinli kesmalarga ishlov berish. Deparafinizasiya. Kesmalarni bo‘yash. Bo‘yalgan kesmalarni suvsizlantirish, yoritish va balzamda yoki polisterolda yakunlash. Mustaqil holda eozinning suvli bo‘yovchi eritmasini, Erlihning va Bemer gemotoksilin eritmasini tayyorlash. Turli kesmalarni, yadro va sitoplazmani gemotoksilineozin bilan bo‘yash.	12	12-	6
4	Gistologik tadqiqot usullari.	Suyakdan olingan materialni fiksasiyalash, yuvish va yog‘sizlantirish. Suyak bo‘lakchasini dekalsinasiyalash. Gistologiya usulida turli organik va neorganik moddalarni aniqlash. Gistokimyo usulining gistologiyada tutgan o‘rni. Van –Gizon usuli bo‘yicha biriktiruvchi va mushak to‘qimalarini	8	8-	4

		bo‘yash. Yog‘ va lipidlarni Sudan III bilan bo‘yash. Polisaxaridlarni Shiff-yod kislota reaksiyasi bilan aniqlash. Immunogisto kimyoviy usulining gistologiyada tutgan o‘rni.			
5	Hujayra va uning tuzilishi.	Hujayra tarkibiy qismlari: hujayra membranasi, hujayra sitoplazmasi va hujayra yadrosi. Hujayraning organoidlari tuzilishi, funksional ahamiyati. Hujayra yadrosi tuzilishi, ahamiyati. Sitoplazma kiritmalari. Hujayraninig bo‘linishi. Turli o‘simlik va hayvon hujayralarini va hujayraning ba’zi kiritmalarini (yog‘, uglevod, pigment) mikroskopda ko‘rish. Umumiy, maxsus organellalarini turli gistologik preparatlarda o‘rganish va ularning rasmini chizish.	8	8	4
6	To‘qima haqida ma’lumot. Epiteliy to‘qimasi	To‘qimalar to‘g‘risida tushuncha. Gistogenez. To‘qimalarning tasnifi . Epiteliy to‘qimasining taraqqiyoti, faoliyati va umumiy belgilari. Uning organizmda joylashishi va tavsifi. Epiteliy turlari, tuzilishi va vazifasi. Epiteliy to‘qimasining regenerasiyasi. Bezli epiteliy. Turli epiteliyni mustaqil holda mikroskopda ko‘rish va ularning rasmini chizish: bir qavatli yassi epiteliyni, bir qavatli kubsimon va silindrsimon epiteliyni, ko‘p qatorli hilpillovchi epiteliyni, ko‘p qavatli muguzlanmaydigan epiteliyni va muguzlanadigan hamda bez epiteliysini, epiteliy hujayrasining maxsus strukturalarini elektron mikrofotogrammalarda o‘rganish.	12	12	6
7	Ichki muhit to‘qimalari. Qon va limfa. Biriktiruvchi to‘qima	Qon va limfaning tarkibi, ularning faoliyati. Qon plazmasi va shaklli elementlari. Eritrositlar, ularning tuzili shi, ahamiyati. Donador va donasiz leykositlar. Ularning turlari, tuzilishi va faoliyati. Leykositar formula. Trombositlar qon plastinkalari. Qonning shaklli elementlari: eritrositlar, leykositlar, trom bositlar tuzilishini mikros-kopda ko‘rib o‘rganish va rasmini chizishni.	8	8	4
8	Ichki muhit to‘qimalari. Biriktiruvchi to‘qima	Biriktiruvchi to‘qimaning taraqqiyoti, organizmda joylashishi, ularning tasnifi, tuzilishi, funksiyasi. Biriktiruvchi to‘qimaning hujayraaro moddalari va hujayralari. Tolali biriktiruvchi to‘qimalarning tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyatlari, organizmda joylashishi va ahamiyati. Maxsus xususiyatga ega bo‘lgan biriktiruvchi to‘qimalar. Skelet to‘qimalari: tog‘ay va suyak to‘qimasi. Tolali biriktiruvchi to‘qimalar tuzilishini mikroskopda ko‘rib o‘rganish. Maxsus hususiyatga ega bo‘lgan to‘qimalar tuzilishi: yog‘, pigment, shilliq, retikulyar to‘qima tuzilishini mikroskopda ko‘rib o‘rganish, rasmini chizish.	8	8	4

		Plastinkasimon suyak to‘qimasi tuzilishini mikroskopda ko‘rib o‘rganish.Tog‘ay to‘qimasi turlari: gialin, elastik, kollagen tolali tog‘ay to‘qimasi tuzilishini mikroskopda ko‘rib o‘rganish, rasmini chizish.			
9	Mushak to‘qimasi.	Mushak to‘qimasining umumiy morfofunksional tavsifi. Silliq mushak to‘qimasi, tuzilishi va regenerasiyasi. Ko‘ndalang-targ‘il skelet mushak to‘qimasining tuzilishi. Mushak tolasining tuzilishi: bazal membrana, sarkolemma, yadrosi, umumiy va maxsus organellalari. Yurak mushak to‘qimasi tuzilishi. Ko‘ndalang targ‘il skelet mushak to‘qimasi, silliq mushak to‘qimasi va yurak mushak to‘qimasi preparatlarini o‘rganish va rasmini chizish	8	8	4
10	Asab to‘qimasi	Asab to‘qimasining umumiy morfofunksional tavsifi. Neyronning tuzilishi, turlari, ahamiyati. Neyrogliya va uning xillari, tuzilishi, faoliyati. Miyelinli va miyelinsiz asab tolalarining tuzilishi. Asab oxirlari. Asab hujayrasining tanasi, akson, dendritlarning tuzilishini mikroskopda ko‘rib o‘rganish va rasmlar chizish. Miyelinli va miyelinsiz asab tolalarining tuzilishini mikroskopda ko‘rib o‘rganish.	8	8	4
11	Yurak-qon tomir tizimi.	Yurak devorining tuzilishi. Yurak o‘tkazuvchi sistemasi. Qon tomirlar tasnifi, tuzilishi. Turli ko‘rgazmali qurollarda yurak devorining tuzilishini o‘rganish. Aorta, arteriya, vena, kapillyar va limfa tomirlari devorining tuzilishini preparatlarda mustaqil holda o‘rganib, ularning rasmini chizish.	12	12	8
12	Qon yaratuvchi va immun himoya a’zolari	Qon yaratuvchi a’zolarning tasnifi. Suyak ko‘migi: tuzilishi, turlari, faoliyati, qon bilan ta’minlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari. Taloq tuzilishi, taloqdan qon aylanishi. Havo yo‘llarining va hazm yo‘llarining devoridagi limfatik folliku- lalar, ularning tuzilishi. Limfa tugunning gistofiziologiyasi. Suyak ko‘migi, taloq, limfa tugunlari tuzilishini preparatlarda mustaqil holda mikroskopda ko‘rib o‘rganish, ularning rasmini chizish.	16	16	12
13	Nafas a’zolari tizimi.	Nafas a’zolarining umumiy morfofunksional tavsifi. Havo o‘tkazuvchi yo‘llar va respirator bo‘limi. Burun bo‘shlig‘i, hiqildoq, kekirdak va bosh bronxlar devorining tuzilishi. O‘pka ichidagi havo o‘tkazuvchi yo‘llar: bronxlar, bronxiolalarning o‘ziga xos tuzilishi. Alveola devorining tuzilishi. Alveolaaro to‘siqning tuzilishi. Aerogematik baryer. Plevraning tuzilishi, faoliyati.	12	12	8

		Kekirdak, bronx, bronxiola va o‘pka preparatlarini mustaqil holda mikroskopda ko‘rish va ularning rasmini chizish.			
14	Teri va uning hosilalari.	Terining tavsifi, taraqqiyoti. Epidermis qavatlari, keratinlanish jarayoni to‘g‘risida tushuncha. Dermaning so‘rg‘ichsimon va to‘rsimon qavatlarining tuzilishi. Teri osti yog‘ kletchatkasi-gipoderma. Yog‘, ter bezlarining tuzilishi, gistofiziologiyasi. Sochlarning tuzilishi va o‘sishini turli ko‘rgazmalarda o‘rganish. Turli ko‘rgazmali qurollarda, preparatlarda teri va uning hosilalari tuzilishini o‘rganish, ularning rasmini chizish.	12	12	8
15	Ovqat hazm qilish tizimi.	Ovqat hazm qilish a’zolari ning umumiy morfofunksional tavsifi. Hazm yo‘llari devorining tuzilishi. Og‘iz bo‘shlig‘i: lab, milk, lunj, tanglay, til va yutqinni mikroskopik tuzilishi, so‘lak bezlarini, me’da osti bezi va jigarni tuzilishini turli ko‘rgazmalarda o‘rganish. Og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarining preparatlarini mikroskopda o‘rganish. Qizilo‘ngach, qizilo‘ngachning me’daga o‘tish qismi, me’da tubi, me’daning pilorik qismi, o‘n ikki barmoqli ichak, ingichka va yo‘g‘on ichak, me’da osti bezi, jigar preparatlarini mikroskopda o‘rganib, ularning rasmini chizish.	12	12	8
16	Ichki sekresiya bezlari	Ichki sekresiya bezlarining umumiy morfofunksional tavsifi. Ichki sekresiya bezlarining tuzilishi va gormonlari. Gormonlarning organizmdagi ahamiyati. Gipofiz, epifiz bezi, qalqonsimon bez va qalqonsimon bez oldi bezi, buyrak usti bezi timus preparatlarini mikroskopda o‘rganib, ularning rasmini chizish.	12	12	8
17	Siydik ajratish tizimi.	Buyrakning mikroskopik tuzilishi. Nefronning ultramikroskopik tuzilishi. Nefron va yig‘uv nayining gistofiziologiyasi. Yukstaglo- merulyar kompleksning tuzilishi, faoliyati. Siydik naylari, qovuq va siydik chiqaruv yo‘lining mikroskopik tuzilishini turli ko‘rgazmali qurollarda o‘rganish.	12	12	8
18	Jinsiy azolar tizimi.	Urug‘donning tuzilishi, uning generativ va endokrin faoliyati. Urug‘ yo‘llari, prostata bezining tuzilishi. Tuxumdon, bachadon, bachadon nayining mikroskopik tuzilishi. Hayz sikli va uning fazalari, hamda hayz siklini ovarial sikl bilan bog‘liqligi. Buyrak, siydik nayi, qovuq, urug‘don, prostata bezi, tuxumdon, va bachadon preparatlarini mustaqil holda mikroskopda o‘rganib, ularning rasmini chizish.	6	6	4
19	Asab tizimi. Sezgi a’zolari	Asab tizimiining morfofunk- sional tasnifi. Orqa miya va bosh miyaning tuzilishi, vazifasi,	20	20	16

		ahamiyati. Miyacha tuzilishi va faoliyati. Bosh miya yarim sharlarining po‘stloq qavatining tuzilishi. Vegetativ asab tizimi. Bosh miya, miyacha, orqa miya, vegetativ asab tuguni preparatlarini mustaqil holda mikroskopda ko‘rib, rasmini chizish. Ko‘z olmasining fibroz pardasi, tomirli pardasi, to‘r pardasining tuzilishi, faoliyati. Shishasimon tana va ko‘z gavharining tuzilishi, faoliyati. Eshituv va muvozanat a’zosi tuzilishi. Ta’m bilish piyozchalarining tuzilishi. Ko‘z,kortiyev a’zosi, ta’m bilish piyozchalarining preparatlarni mustaqil holda mikroskopda ko‘rish va ularning rasmini chizishni.			
		Jami:	**192**	**192**	**96**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. B. M. Saloxiddinov, X. I. Shukurov, T. M. Muxammadov Gistologiya va gistologik tekshirish usullari. Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2017 yil 2-nashri

2. K. A. Zufarov Gistologiya. Toshkent, 2004 yil. 3-nashri

3. С. И. Юшкансева, В. Л. Быков. Гистология, ситология и эмбриология. Атлас.- М.: ГЕОТАР-Медиа, 2012.

4. E. O. Tursunov. Gistologiyadan o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2010 yil.

3. Н. В. Бойчук, Р. Р. Исламов, С. Л. Кузнесов, Ю. А.Челышев. Гистология. Атлас для практических занятий: учебное пособие. – М.: ГЕОТАР-Медиа, 2008.

5. Э. Г. Улумбеков, Ю. А. Челышев. Гистология. Эмбриология. Ситология. - М.: ГЕОТАР-МЕД, 2007.

6. Ю. И. Афанасев, С. Л. Кузнесов, Н. А. Юрина. Гистология, ситология и эмбриология – 6-е изд. – М.: Медисина, 2006.

Internet manbalari

www.med.uz

www.referat.uz

www.histology.narod.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910200 - Funksional diagnostika ishi

Immunodiagnostika fanidan

MODUL DASTURI

Kvalifikatsiya:	**1. Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi**
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**308**
Ajratilgan auditoriya soat:	**192**

Toshkent-2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchilar:

Z.A.Abduraxmanova	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
D.K.Mutalipova	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi bosh o‘qituvchi

Taqrizchilar:

Sh.T.Iskandarov	Sirdaryo viloyati bolalar ko‘ptarmoqli tibbiyot markazi bosh vrachi tibbiyot fanlari nomzodi
S.S.Xudayberdiyev	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaz Sirdaryo viloyati filiali direktori oliy toifali vrach

1.O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Immunodiagnostika
Ajratilgan soat	**192**
Mavzular soni	**10**
Dasturning maqsadi	- Organizm immun tizimi faoliyati, immunitet, immunoprofilaktika, immunoterapiya tushunchalari bilan tanishtirish; - Profilaktik emlash taqvimi bilan tanishtirish; - Emlashdan keyingi asoratlarda kechiktirib bo‘lmaydigan yordam ko‘rsatish malakasini egallash; - O‘quvchilarga emlashni yuqumli kasalliklarni oldini olishda muhim ekanligini tushuntirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	– Immunodiagnostika fanini chuqur o‘rganish tibbiyot xodimlari uchun nazariy va amaliy bilim olishlariga yordam berish. - Immunoprofilaktika ishlarini o‘tkazish; - Profilaktik emlash ishlarini olib borish
Bilim	– Infeksiya haqida tushuncha. – Immunitet haqida tushuncha . – Yuqumli kasalliklarning maxsus immunoprofilaktikasi va immunoterapiyasi. – Allergiya va anafilaksiya. – Yuqumli kasalliklar tashxisoti – Vaksina haqida tushuncha. – Immunoprofilaktika uchun qo‘llaniladigan vaksinalar turlari – Profilaktik emlash jadvali bilan ishlash – Profilaktik emlashni tashkil etish – Emlash uchun ishlatilgan preparatlarning yaroqligini tekshirish, qo‘llash – Rejali emlashni tashkil etish va o‘tkazish qoidalari; – Profilaktik emlashdan keyingi bemor nazorati – Emlashdan keyingi yuz beradigan asoratlarni tashxislash va davolash – Allergiya haqida tushuncha – Allergik reaksiyalar turlari
Ko‘nikma	– Epidemiologik anamnez yig‘ish, tahlil qilish. – Shoshilinch xabarnomani to‘ldirish. – Immunitet tushunchasi – Aholi o‘rtasida yuqumli kasalliklarning profilaktikasi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish. – Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruqlari asosida profilaktik emlashlar o‘tkazish – Emlash kalendar sxemasi, maxsus profilaktika ishlarini o‘rganish – Vaksina va gammaglobulin yuborish – Immunitet reaksiyalarini qo‘yish – Vaksinalarni saqlash va tashish – Emlash uchun qo‘llaniladigan texnika vositalari bilan ishlashni o‘rganish – Vaksinalarni organizmga yuborish usullari

	– Allergiya sinamasini o‘tkazish – Vaktsinatsiya zardoblarini yuborgandan keyin bo‘ladigan asoratlari va bunda kechiktirib bo‘lmaydigan yordam ko‘rsatish - Vaksinalar doimiy saqlanadigan joylarda favqulotda vaziyat yuz berganda qilinadigan harakatlar, sovutish va muzlatish kameralarida ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish. - O‘zbekiston Respublikasida infeksion kasalliklarning immunoprofilaktikasi haqidagi SanPiN Ns 0239 - 07 2015 yildagi buyrug‘i bilan tanishish. “Xavfsiz immunizasiya” dasturi bo‘yicha tavsiyalar (YuNISEF).
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fanning nomi	“Anatomiya, fiziologiya va patologiya” “Klinik laboratoriya tekshirish usullari” “Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari” “Hamshiralik ishi asoslari” “Yuqumli kasalliklar”
O‘qitishning tashkiliy shakli	N –nazariy ta’lim; A –amaliy ta’lim; NA –birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX –maxsus xonalarda mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma,og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qi tishni tashki liy shakli		Mustaqil ta’ lim
				Nazariy	Amaliy	
1	Infeksiya va immunitet haqida tushuncha. Immunologiya fanining rivojlanish tarixi.	Infeksiya, infeksion jarayon haqida tushuncha. Immunitet haqida tushuncha. Immunologiya fanining rivojlanish tarixi. Immunologiya fanining maqsad va vazifalari. Immunitet turlari. Tug‘ma immunitet turlari. Orttirilgan immunitet turlari.	6	6	-	2
2	Organizmning nospetsifik himoya omili.	Organizmning nospetsifik himoya omili turlari. Nospetsifik himoyaning hujayraviy omillari - fagositoz. Nosptsifik himoyaning gumoral omillari. Immunitet reaksiyalari. Epidemiologik anamnez yig‘ish, tahlil qilish. Shoshilinch xabarnomani to‘ldirish. Immunitet reaksiyalarini qo‘yish.	26	26	20	14
3	Yuqumli kasalliklarning maxsus immunoprofilaktikasi.	Immunoprofilaktika haqida tushuncha. Immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlari. Vaksina haqida tushuncha. Immunoprofilaktika uchun qo‘llaniladigan vaksinalar turlari. Tirik vaksinalar, ularning olinishi, odam organizmiga yuborish usullari. Vaksinal jarayonning kechishi. Immunitetning kuchlilik darajasi va davomiyligi. Tirik vaksinalarning boshqa vaksinalarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari. Jonsizlantirilgan vaksinalar, anatoksinlar, ularning olinishi va umumiy xossalari. Organizmga yuborish usullari. Shimdirilgan vaksinalarni oddiy vaksinalarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari. Kimyoviy vaksinalar. Ularning olinishi. Kimyoviy vaksinalarning afzalliklari, ularning hozirgi paytdaga qo‘llanilish darajasi. Immun zardoblar va immunoglobulinlar. Ularning olinishi. Umumiy xossalari. Gomologik zardoblar va immunoglobulinlarniig geterologik	28	28	20	14

		zardoblarga nisbatan afzalliklari. Passiv emlashning samaradorligi. Bakteriofaglar. Ularning umumiy xossalari, qo‘llanishga doir ko‘rsatmalar. Vaksinalarni saqlash va tashish. Emlash uchun qo‘llaniladigan texnika vositalari bilan ishlashni o‘rganish. Zamonaviy texnik asboblar. Vaksinalarni organizmga yuborish usullari.				
4	Yuqumli kasalliklarning maxsus immunoterapiyasi.	Immunoterapiya haqida tushuncha, turlari. Immunoterapiyada qo‘llaniladigan preparatlar. Immunoterapiya asoratlari. Anafilaktik shokda shoshilinch yordam. Antirabik vaksina va gammaglobulin yuborish. Shoshilinch xabarnoma to‘ldirish.	18	18	12	10
5	Yuqumli kasalliklar tashxisoti.	Turli yuqumli kasalliklarning tashxisoti. Serologik reaksiyalar ahamiyati, maqsadlari, turlari. Laboratoriya tashxisida serologik reaksiyalarni o‘tkazish.	18	18	12	10
6	Allergiya va anafilaksiya.	Allergiya haqida tushuncha. Allergik reaksiyalar turlari. Tez yuzaga chiqadigan allergik reaksiyalar. Sekin yuzaga chiqadigan allergik reaksiyalar. Allergiya sinamasini o‘tkazish.	18	18	12	10
7	Profilaktik emlashlar.	Aktiv va passiv emlash qoidalarini; Emlashga doir bo‘lgan ko‘rsatma va qo‘llanmalarni o‘rganish; Emlash xonasining tuzilishi va ishlash printsipi. Vaktsinalarni saqlash harorati. Vaksinalar doimiy saqlanadigan joylarda favqulotda vaziyat yuz berganda qilinadigan harakatlar, sovutish va muzlatish kameralarida ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish. O‘zbekiston Respublikasida infektsion kasalliklarning immunoprofilaktikasi haqidagi SanPiN № 0239 – 07 2015 yildagi buyrug‘i bilan tanishish. “Xavfsiz immunizatsiya” dasturi bo‘yicha tavsiyalar (YuNISEF).	20	20	16	10
8	Profilaktik emlash jadvali bilan ishlash	Bolalarni profilaktik emlash jadvali (SanPiN 0132-02), emlash uchun ishlatiladigan preparatlarning tavsifnomasi mujassamlashgan jadvali Emlash kalendar sxemasi, maxsus profilaktika ishlarini rejalashtirish va o‘tkazish qoidalari. Tibbiy hujjatlarni	22	22	16	10

		rasmiylashtirish va to‘ldirish.				
9	Profilaktik emlashni tashkil etish	Profilaktik emlashni tashkil etish. Emlashni rejalashtirish va hisobga olish. Emlash kabinetining jixozlanishi. Vaksina yuboriladigan anatomik joylari. Inyeksiya o‘tkazishning texnik usullari.	18	18	12	8
10	Profilaktik emlashdan keyingi bemor nazorati	Emlashdan keyingi yuz beradigan asoratlarni tashxislash va davolash. Vaktsinatsiya zardoblarini yuborgandan keyin bo‘ladigan asoratlari va bunda kechiktirib bo‘lmaydigan yordam ko‘rsatish.	18	18	12	8
		Jami:	**192**	**192**		

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.B.G‘anihojayeva N.A.Nazarova “ Mikrobilogiya va mikrobiologik tekshirish usullari ” Toshkent, “ILM ZIYO” 2017 yil
2. E.E.Eshboyev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulot uchun» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2007 yil
3. I.R.Ashirova D.A.Asqarova “ Bolalarni emlash asoslari ” Toshkent 2003 Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1 . “Yuqumli kasalliklar bilan bemorlar parvarishi” Toshkent-2015 yil “Ilm Ziyo” nashriyoti
2. L.A.Ponomareva “Tibbiy profilaktika sohasiga doir amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma” Toshkent, 2003 y
3. YuNISEF ma’lumotlari.

Internet saytlari:

1. www analizi.ru
2. med www-knigi laboratoriya
3. tma.uz
4. tashpmi.uz
5. http://www.gig.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

50910200 - Funksional diagnostika ishi

Tibbiy radiologiya asoslari fanidan

MODUL DASTURI

Kvalifikatsiya:	**Funktsional diagnostika va tibbiy laboratoriya ishi mutaxassisi**
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**309**
Ajratilgan auditoriya soat:	**216**

Toshkent-2023 yil

1. Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil 29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI**.

Tuzuvchilar:

Z.A.Abduraxmanova	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
D.K.Mutalipova	Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi bosh o‘qituvchi

Taqrizchilar:

Sh.T.Iskandarov	Sirdaryo viloyati bolalar ko‘ptarmoqli tibbiyot markazi bosh vrachi tibbiyot fanlari nomzodi
S.S.Xudayberdiyev	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaz Sirdaryo viloyati filiali direktori oliy toifali vrach

1.O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Tibbiy radiologiya asoslari
Ajratilgan soat	**216**
Mavzular soni	**8**
Dasturning maqsadi	“Tibbiy radiologiya asoslari” fani funksional diagnostika ishi kasbi uchun asosiy kasbiy fan hisoblanib, o‘quvchilarda nur diagnostikasi va radiologik tekshiruv xonalarida bemorlarni nur tashxisi uchun tekshiruvlarga tayyorlash va asoratlar kelib chiqqanda birinchi yordam ko‘rsatishga doir bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishga qaratilgan.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	– -Tibbiy radiologiya asoslari fanini chuqur o‘rganish tibbiyot xodimlari uchun nazariy va amaliy bilim olishlariga yordam berish. – Ko‘proq bilimga ega bo‘lgan, mukammal malaka ko‘nikmalarini egallagan har bir o‘quvchi kelajakda o‘z kasbiy faoliyatini va bilimini oshirishga yordam berish. – - Fanni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchi bilishi va bajarishi kerak bo‘lgan nazariy, amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasiga qo‘yilgan talablar fan mavzularida berilgan.
Bilim	– Tibbiy radiologiya asoslari fanining tarixi va rivojlanishini; – B.K.Rentgenning hayoti va rentgen nurlarini kashf etilishini; – A.Bekkerel, Pyer Kyuri, Mariya Skladovskaya–Kyurilar tomonidan radioaktivlik hodisasining kashf qilinishi va tadqiqotlar olib borilishini; – O‘zbekistonda tibbiyot radiologiyasini rivojlanishini; – Tibbiyot radiologiyasining maqsad va vazifalarini; – O‘zbekiston Respublikasi SSVning amaldagi buyruqlari bilan tanishish; – Rentgen nurlarining biologik ta’sirini; – Rentgen nurlari bilan tekshirish usullarini; – Rentgen xonasining tuzilishi va jixozlanishini; – Rentgenoskopiya o‘tkazishni; – Rentgenografiya o‘tkazishni; – Nafas olish tizimi kasalliklarida rentgenologik tekshirish usullarini; – Flyuorografiya o‘tkazishni; – Rentgen kontrast moddalar bilan tekshirish usullarini; – Radionuklid tekshirish usullarini; – Hazm qilish tizimi kasalliklarida rentgenologik tekshirish usullarini; – Siydik ajratish tizimi kasalliklarida rentgenologik tekshirish usullarini. – Ultratovushning fizikaviy hususiyatlarini; – Ultratovush bilan skanerlash uchun ko‘rsatma va moneliklarini; – Doplerografiya o‘tkazishni – Angiografik tekshirish usullarini; – Angiografiya o‘tkazish uchun ko‘rsatma va mone’liklarni; – Angiografiya o‘tkazishda qo‘llaniladigan kontrast moddalarni; – Angiografiya tekshiruvidan so‘ng bemorlarni kuzatishni. – Magnit rezonans tomografik tomografik tekshiruv uchun ko‘rsatma va monyeliklarni; – MRT tekshirish usullari, ularning ahamiyatini. – Internetdagi yangi ma’lumotlar asosida mavzular bo‘yicha referat va ma’ruzalar tayyorlash ;

